

ИСЛОМ

ХҲҮҚҲШҮНОСЛИГИ



3- BOB. FIQHNING YUZAGA KELISH TARIXIVA RIVOJLANISH BOSQICHLAM

Tayanch iboralar: *fiqh*, *huquqiy tizim*. *faqih*, *taxrij*, *tarjih*, *muqallid*, *ilk huquqiy maktablar*, *ahli za V. ahli hadis*, *Hijoz maktabi*, *Iroq maktabi*.

§ 1. Fiqh tushunchasi

Fiqh soʻzi arab tilida chuqur tushinish, idrok etish degan maʼnolarni bildiradi. Fiqh soʻzi bilan bir qatorda «fahm», «maʼrifat», «ilm» soʻzlari ham anglash, bilish, idrok etish maʼnolarini bildiradi. Ammo Fiqh deganda atroflicha, mohiyatiga yetgan holda bilish va tushunish koʻzda tutiladi. «*Rubba homili fiqhini gʻayru faqihin*», yaʼni «fiqhni tashuvchi koʻpgina kishilar faqih emaslar», degan maqolda shu xususiyat koʻzda tutilgandir.

Fiqh soʻzining mazmuni vaqt oʻtishi bilan shakllanib, takomillashib borgan. Ilk davrdagi fiqh tushunchasi bilan keyingi davrdagi fiqh tushunchasi oʻzgarib takomillashib borgan.

Fiqh tushunchasi bilan bogʻliq ilk davrda zikr qilingan qarashlarni Qurʼoni karimda uchratamiz. «Niso» surasi 78-oyat. «Aʼrof» surasi 179-oyat, «Hud» surasi 91-oyatlarda «fiqh» soʻzi chuqur anglash, mulohaza qilish, idrok etish degan maʼnolarda ishlatilgan.

Paygʻambarimizning mashhur hadislaridan birida shunday deyiladi: «Alloh kimga yaxshilikni ravo koʻrsa uni dinda faqih qilib qoʻyadi». Bu hadis koʻp hollarda fiqh ilmini va fiqh ilmi bilan shugʻullangan shaxslarni ulugʻlash maqsadida zikr qilinadi.

Aslida bu hadisning bir qismi boʻlib, uning davomi bor. Hadisning davomi shunday: «Men faqat taqsimlashni koʻrsataman, Alloh beradi. Bu ummat Allohning amrida davom etadi, ularga qarshi boʻlganlar qiyomat kelguncha zarar bera olishmaydi».

Olimlarning taʼkidlashlaricha, bu hadis urushda oʻlja taqsimlash hodisasi bilan bogʻliq. bir urushdan soʻng oʻljalar

— 42 —

taqsimlanayotgan paytda bir kishi Paygʻambarimizdan norozi boʻlgan holda adolat qilishini soʻraydi, shunda Paygʻambar ushbu hadisni aytgan ekan.

Hadisning oʻljalarni yoki mollarni taqsimlash ishi bilan bogʻliq ekanligini imom Buxoriy bu hadisni «Xumus», yaʼni ulushlarning beshdan birini ajratishga bagʻishlangan bobda, Muslim ibn Hajjoj esa «Zakat» bobida zikr qilganligini tasdiqlaydi.

Agar hadisning aytilish sababini koʻzda tutadigan boʻlsak, hadisning mazmunini shunday tushunish mumkin: «Hamma narsani beruvchi Alloh. oʻljalarni taqsimlash haqidagi ulushlarni ham belgilab bergan Alloh. Men faqat taqsimlovchiman. Mening ishlarim albatta Allohning irodasi va hukmi asosida

bo'ladi. Buni fahm-farosatli kishilar bilishadi. Aslida bunday idrokm Alloh o'zi suygan va yaxshilikni iroda qilgan bandasiga beradi. Mana shunday kishilar bor ekan, bu ummat qiyomat kelguncha ishlari Allohning ko'rsatmasi asosida haq uzra bo'lishadi va ularga g'oyaviy yoki boshqa jihatdan qarshi bo'lganlar ularga zarar keltira olishmaydi».

Yuqorida zikr qilingan tarixiy hodisa va uning hadis mazmuniga ta'sirini inobatga olgan holda mazkur hadisdagi fiqh tushunchasini izohlaydigan bo'lsak, aytish mumkmki, fiqh bu Payg'ambarning olib borayotgan ishlari, diniy va dunyoviy ishlarini yuritishlarini to'g'ri anglash, to'g'ri tushunish va to'g'ri baho bera olish salohiyatidir. Boshqacha qilib aytganda bu siyosiy onglilikdir. Davlat boshlig'i bo'lgan Muhammad payg'ambarning olib borayotgan siyosatini, xoh diniy bo'lsin, xoh dunyoviy bo'lsin xalqni boshqarishiga oid ishlarini to'g'ri anglab, ularning behikmat emasligini tushungan va mohiyatini bilgan kishi faqih deb atalgan. Shu sababli boisa kerak, Muslim ibn Hajjoj bu hadsini "Imora", ya'ni amirlik, davlat ishlariga bag'ishlangan bobda ham zikr qilgan.

Madina shahar-davlatida turli siyosiy gnrhlarning shakllanib, Muliammad payg'ambar ortidan turli ig'volarni tarqatib, uning har bir ishini noto'g'ri talqin qilib, salbiy jihatini ko'rsatishga urinayotganligini inobatga olsak, hadisning bu mazmunini anglash qiyin bo'lmaydi. Shu nuqtai-nazardan yondashadigan bo'lsak, Termiziy rivoyat qilgan: "Bitta faqih shaytonga ming obid, ya'ni ibodatgo'y kishidan ko'ra (yo'ldan ozdirishi - A.S.) og'irroqdir" hadisining mazmuni an'anaviy ravishda biz tushungan ma'nodan boshqa bo'lib chiqadi.

Keyingi davrlarda fiqh tushunchasi dinni chuqur anglash degan mazmunni ifodalagan va u islom dini bilan bog'liq barcha ilmlami o'z ichiga olgan. Olimlarning ta'kidlashlaricha, Abu Hanifaning mafkura (aqoid)ga bag'ishlangan asarini "al- Fiqh al-akbar" (Katta fiqh) deb ataganligini ham shu davrdagi umumiy qarashga asoslangan. Olimlar shundan kelib chiqqan holda mafkura (aqoid) ilmini "al-fiqh al-akbar", huquqshimoslik (fiqh) ilmini esa "al-fiqh al-asg'ar" (kichik fiqh) deb atalganligini taxmin qilishadi.

Fikrimizcha, Abu Hanifaning mafkura (aqoid) ilmini umumiy mazmundagi fiqh tushunchasidan ajratib, maxsus nom bilan "al-fiqh al-akbar" deb atashi uning ilmlami tasniflashdagi ilk qadam sifatida baholash mumkin.

Fiqhga berilgan birinchi ta'rif ham Abu Hanifaga mansub. Bu "al-Fiqh ma'rifat an-nafs maa lahaa va maa 'alayhaa" degan ta'rif bo'lib, u ko'pincha "Fiqh bu - insonning o'ziga foydali va zararli narsa (norma)larni bilishidir", deb tushuntiriladi.

Shunga ko'ra, ilmdan hosil bo'ladigan foyda va zarar masalasi ta'rifda asosiy o'ringa chiqarilgan. Olimlar bu ta'rifda fiqh tushunchasining mafkura bilan shug'ullanuvchi aqoid, axloq masalalari bilan shug'ullanuvchi tasawuf va

huquqshunoslik bilan shug'ullanuvchi fiqh ilmlarini o'z ichiga qamrab olganligini ta'kidlashgan. Zero, to'g'ri e'tiqodni o'rgansa - yaxshi, oxirati obod bo'ladi, yomon e'tiqodga ega bo'lsa - yomon, oxirati barbod bo'ladi, yaxshi axloqni o'rgansa - yaxshi, odamlar orasida hurmatli bo'ladi, yomon axloqqa ega bo'lsa - yomon, odamlar orasida e'tiborsiz bo'ladi, rioya etishi lozim bo'lgan norma (hukm)larni o'rgansa - yaxshi, savob oladi, taqiqlangan ishlarni bilmasa yoki norma (hukm)larga rioya etmasa - yomon, gunohkor bo'ladi yoki jazolanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, fiqh tushunchasi keng bo'lib, yuqoridagi ta'rifga ko'ra bu so'z mazmuniga aqoid, tasavvuf va fiqh ilmlari kirib ketadi. Hatto

ba'zi olimlar Qur'onni va hadislarni anglashni fiqh deb atashgan. Shu sababli ayrim olimlar ushbu ta'rifni aynan bugungi kunda tushunayotgan fiqh ilmini ko'rsatish uchun uning oxiriga "amalan", ya'ni amaliy jihatdan degan so'zni qo'shishni taklif qilishgan. Bu yerda shuni alohida aytib o'tish lozimki, islom huquqida "amaliy" tushunchasi insonning xatti-harakatini ifodalagani uchun u ko'pincha huquqiy degan ma'noda ishlatilgan. Shunga ko'ra, ta'rif shunday tarjima qilinadi: "Fiqh bu - insonning amaliy (huquqiy) jihatdan foydali va zararli bo'lgan (norma)larni bilishidir".

Aslida arab tilida predlog (harf)lar gapning mazmuni va grammatik holatiga qarab turlicha ma'no bildiradi. Masalan, ushbu ta'rifdagi "lahaa" so'zidagi "lom" harfi bu yerda o'zidan keyin kelgan so'zlarni qaratkich kelishigida kelishini talab qiladigan holatda (al-lom al-jorra). Arab tili mutaxassislariga ko'ra "lom" harfi bu holatda 14 ma'noni bildiradi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda bu ta'rifda ishlatilgan foyda ma'nosini ifodalagan "laa" va zarar ma'nosini ifodalagan "alaa" predloglarining mazmuni boshqacha talqin qilish mumkin. Masalan, "liy 'alayka haqq" deyilgan "mening senda haqqim bor" deyilgan "lom" predlog (harf)i tegishlilik va huquqni, "alo" predlog (harf)i zimmadagi majburiyat ma'nolarini bildiradi. Ushbu mazmunni yuqoridagi ta'rifga tatbiq etgan holda shunday tarjima qilish mumkin: "Fiqh bu - insonning o'z huquq va majburiyatlarini bilishidir". Bu mazmun fiqhning asl mohiyatini a undan ko'zlangan maqsadni ifodalab bera oladi.

Abu Hanifadan so'ng fiqhga ta'rif bergan kishi bu imom Shofe'iydir. U fiqhni shunday ta'riflaydi: "Fiqh bu - aniq lafsiliy) dalillardan chiqarilgan shariat normalarni o'rganuvchi ilmdir". Olimlarga ko'ra, dalillar ikki xil bo'ladi: aniq (tafsiliy) va umumiy (ijmoliy yoki kulliy). Aniq (tafsiliy) dalil deganda biror ■ :rmaning huquqiy asosini aniq ko'rsatadigan dalil tushuniladi. Masalan, tahoratning namoz o'qish uchun shartligi Qur'oni i^rundagi Moida sui'asining 6-oyatidagi "Ey imon kelth'ganlai', tgar namozga tursangiz yuzlaringizni, ikki qo'lingizni tirsaklari : . an yuvingiz, boshingizga masx tortingiz va ikki oyog'ingizni Tiqlari bilan (yuvingiz)" degan qisrni bilan asoslanishi ko'rsatilganda aniq (tafsiliy) dalil bo'ladi. Agar umumiy holda namoz uchun tahoratning shartligini uning Qur'onda mustahkamlab qo'yilganligi bilan asoslansa, bu umumiy (kulliy yoki ijmoliy) dalil bo'ladi, Demak, bu ta'rifga ko'ra fiqh deganda normalarni ularning aniq huquqiy asoslari bilan birga o'rgatadagin ilmi tushuniladi. Hozirgi kunda ushbu ta'rif barcha olimlar tomonidan fiqhni to'liq ifodalab bera oladigan ta'rif sifatida qabul qilingan.

Bu ikki ta'rifni solishtiradigan bo'lsak quyidagi farqlarni kuzatish mumkin.

Birinchidan, Abu Hanifaning ta'rifida fiqh faqat bilish sifatida baholangan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, fiqh deganda huquqiy savodxonlik nazarda tutilgan. Shofe'iyning ta'rifida esa, fiqh ilmi sifatida ko'rsatilgan. Shundan ba'zi

tadqiqotchilar fiqh Shofe'iyning davrida ihn sifatida shakllangan degan xulosaga kelishgan.

Uddnchidan, Abu Hanifaning ta'rifida fiqhning obykti sifatida huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi normalar ko'rsatilgan bo'lsa, Shofe'iyning ta'rifida bunday normalar bilan birga ulaming aniq huquqiy asoslari ham ko'zga tutilgan, Shundan kelib chiqqan holda faqat shariat normalarini biladigan kishilar Abu Hanifaning ta'rifiga ko'ra faqih hisoblanadi. Masalan, shariat normalarining to'plami sifatida qo'llaniladigan fiqhiy matnlar turkumiga kiruvchi "Muxtasar al-Quduriy" yoki diyorimizda bir necha asrlardan beri madrasalarda darslik sifatida o'qitilayotgan "Muxtasar al-viqoya" kitoblarini o'qib, yodlab olgan kishi Abu Hanifaning ta'rifiga ko'ra faqih bolib, olimlar bunday faqihni majoziy faqih deb atashadi. Agar ulaming aniq huquqiy asoslari bilan bilsa Shofe'iyning ta'rifiga ko'ra faqih hisoblanadi. Masalan, shariat normalarini asoslab, izohlab yozilgan mashhur "al-Hidoya" asarini o'rgangan kishi Shofe'iyning ta'rifiga ko'ra faqih hisoblanib, olimlar bunday faqihni haqiqiy faqih deb atashadi. Fiqh ilmi qoidasiga ko'ra, majoziy faqihlar yuzaga kelgan holat bo'yicha huquqiy yechim yo'lini ko'rsatayotganda faqat o'zi o'rgangan normalarni manbasini aytgan holda naql qilishi mumkin, hatto uni o'zidan chiqarib. "shunday bo'Madi" deyishga ham haqqi yo'q deyiladi. Haqiqiy faqih esa har bir normalning huquqiy asoslarini va mohiyatini bilganligi uchun u muayyan shartlarga rioya qilgan holda huquqiy yechim yo'llarini o'zi ko'rsatishi mumkin deyiladi.

§ 2. Fiqh ilmining rivojlanish bosqichlari

Fiqhning mustaqil ilm sifatida shakllanishi VIII-LX asrlarga kelibgina amalga oshdi. Ko'pchilik tadqiqotchilar fiqh ilmining yuzaga kelishini mazhablarning shakllanishi bilan bog'lashadi. Ayrimlar esa fiqh ilmini shariat bilan bir paytda yuzaga kelgan deb hisoblashadi. Ammo birinchi qarash haqiqatga yaqin. Zero fiqh tushunchasining tahlilida ko'rganimizdek, ilgari paytlarda fiqh tushunchasi kengroq ma'noni ifodalab, aniq bir ilmining nomi bo'lmagan. Qolaversa, Umaviylar davrida shakllangan ilk huquqiy maktablar to'g'ri ma'noda huquq maktabi bo'lmagan. Balki ular ham hadis maktabi, ham tafsir maktabi ham bo'lgan. Shu sababli ular tafsir ilmining tarixida ham, hadis ilmining tarixida ham zikr qilinadi. Demak bu davrda ham fiqh xali to'liq mustaqil bo'lmagan edi, Abbosiylar davrida mazhablarning shakllanishi fiqhning ilm sifatida shakllanishiga olib kelgan.

-46-

Fiqh ilmining tarixini o'rgangan olimlar uning rivojlanish bosqichlarini turlicha ko'rsatishadi. Ammo bu boradagi klassik tushuncha ko'pchilik olimlar zikr qilishgan. Unga ko'ra fiqh ilmi

- bosqichda rivojlangan. Bular: payg'ambar davri, sahobalar davri, tobeinlar davri, mujtahidlar davri, muxarrijlar davri va 'aqlid davri. Shu bilan birga

boshqa turdagi tasniflar ham mavjud. Ammo biz bu yerda boshqacha tasnif asosida fiqhning rivojlanish arixini tahlil qilishni ma'qul deb bildik. Bunga ko'ra fiqhning rivojlanish bosqichlari shu davrlarni bosib o'tgan: shakllanish davri, yuzaga kelish davri, rivojlanish davri, turg'unlik davri va g'oliblik davri

§ 3. Fiqhning shakllanish davri

Shakllanish davri fiqhning ilm sifatida shakllanmagan, asosiy kurtaklari shakllanayotgan davrdir.

Shakllanish davri Madina shahar davlati (622-632), Xulafoi Rixid (632-661) va Umaviylar (661-750) davrlarini o'z ichiga oladi.

Madina shahar-davlati (622-632) davri shariat yuzaga keigati davr bo'lib, bu dawning fiqh bilan bog'liqlik jihatlari ayrim prinsipial qoidalarining shakllanishida ko'rish mumkin.

Ilk prinsipial qoida bu ayrim masalalarda huquqiy plyuralizm (ixtilof (ta'addud) al-ijtihod)ga yo'l ochilishidir, Buni biz bir necha ko'rinishda ko'ramiz.

Birinchidan, davlat mansabiga tayinlangan sahobalarning shaxsiy qarashlariga ega bo'lishini qo'llab-quvvatlashda ko'ramiz. Masalan, Muoz ibn Jabalning Yamanga hokim (voliy) etib tayinlanganda uning huquqiy masalalarni hal qilishda shaxsiy qarashiga tayanishi haqidagi gapni Payg'ambarni xursand qiladi.

Ikkinchidan, sahobalar mansabni egallamagan bo'lsalar ham Payg'ambardan uzoqroq joyda bo'lganlarida shaxsiy qarash (ijtihod)lari asosida kichik ijtimoiy masalalarni hal qilishgan va Payg'ambarham ularga ijobiy munosabat bildirgan. Bular asosan Qur'on o'qib dam solganlik uchun haq olish, junub bo'lgan kishi sovuq kunda kasal bo'lishi yoki hayotiga xavf bo'lishidan qo'rqqanda g'usl qilmasdan tayammum qilishi mumkinligi kabi masalalarga oid bo'lgan. Bu iurdagi holatlar asosan sunnaning taqriiriy sunna turida aks etgan.

Uchinchidan, Payg'ambarning ayrim holatlarda umumiy qoidadan chetlashib, yengillashtirishga qaratilgan ko'rsatmalarida sahobalarning asl qoida bo'yicha harakat qilishlariga e'tiroz bildirmagan. Masalan, Xandaq jangidan so'ng Payg'ambar Banu Qura'ayya yerlariga bormasdan asr namozini o'qishni taqiqlaganda sahobalarning bir guruh ushbu ko'rsatmaga rioya etishgan bo'lsa, boshqa guruh sahobalar asr namozining vaqti o'tib ketishidan xavfsirab, asrni o'qib so'ng yetib borishadi. Payg'ambar bularning barchasini ijobiy baholagan va e'tiroz bildirmagan.'

Ikkinchi prinsipial qoida bu tadriijiylikdir. Bir tizim (qabilac- hilik tizim)ida yashab kelgan insonlarni yangi bir tizim (davlatc- hilik tizimi)ga olib o'tish inqilobiy shaklda amalga oshirilmagan. Zero bunday qilinishi ijtimoiy va mafkuraviy tuslikunliklar va bo'shliqlarning shakllanishiga olib keladi. Shu sababli ham shariat normalarini joriy qilish tadriijiylik asosida amalga oshirilgan.

— 48 —

Masalan, o'sha davrda keng tarqalgan mast qiluvchi ichimlik- larni iste'mol qilish va so'dxo'rlik asta-sekinlik bilan taqiqlandi.

Uchinchi prinsipial qoida tadriijiylikning qonunchilikdagi in'ikosi bu ilgari huquq normalarining bekor qilinishi (nasx) dir. Ijtimoiy munosabatlar tadriijiylik asosida tartibga solinayotganda har bir bosqichda alohida huquq normalari chiqariladi. Keyingi davrda ilgari davrdagi norma bekor qilinadi.

Tadrijiy-lik jarayonida bunday holat tabiiydir. Keyingi davrlarda ham normalaming o'zgarishi yuz bergan bo'lsa ham bu davning o'ziga xosligi shundaki, bu davrdagi o'zgarishlar Qur'on va sunna asosida amalga oshiriladi edi, keyingi davrdagilar esa shaxsiy qarash (ijtihad)lar asosida amalga oshirilgan. Shu sababli ham Qur'on va sunna normalarini bekor qilish (nasx) faqat shu davrning xususiyati hisoblanadi.

Xulafoi roshidun (632-661) davri ilohiy vahiy orqali Alloh bilan bevosita aloqa uzilgan va insonlar o'zlari davlat darajasida yoki alohida shaxslar darajasida shariat normalari takomillashgan davrdir.

Xulafoi roshidun davrida kengash (shuro) prinsipi keng tarqalgan bo'lib, davlat rahbari (xalifa) o'zining atrofiga mas'uliyatlashish uchun ayrim sahobalarni to'plagan. Hatto ikkinchi xalifa Umar xalifaligining ilk davrida maslahatlashish uchun sahobalarning poytaxt - Madinadan chiqishlarini taqiqlagan edi. Keyingi davrda faqihlar davlat rahbarining kengashi natijasi-chiqargan huquqiy qarorlarini ijmo yoki sahobalarning ijmo - qasbi ostida huquq manbalaridan biri sifatida qabul qilgan.

Bundan tashqari alohida shaxslar ham shaxsiy huquq ijodkorlik (ijtihad) faoliyatini amalga oshirgan. Tarixchilar bunday shaxslar qatoriga xulafoi roshidunni alohida shaxslar sifatida ham hisoblagan. Olimlar ularning shaxsiy huquq ijodkorlik (ijtihad)lari bilan bergan qaror (fatvo)larining o'z yold ko'pligiga qarab 3 guruhga ajratgan.

Birinchi guruh salohiyatli eng ko'p fatvo bergan 7 ta sahoba bo'lib, ular Umar ibn al-Xattob (h.a. 40-23/584-644), Ali ibn Abi Talib (h.a. 23-40/600-661), Abdulloh ibn Mas'ud (vaf. 32/653), Umm al-Fa'roq bint Abi Bakr (vaf. 58/678), Zayd ibn Sobit (h.a. 11-

45/611-665), Abdulloh ibn Abbos (h.a. 3-68 619-687), Abdulloh ibn Umar (h.a. 10-73/610-694)lardir. Bularning ichida eng ko'p huquqiy qarashlarni bildirgan (fatvo bergan) sahoba sifatida Abdulloh ibn Abbos qayd qilinadi.

Ikkinchi guruh sahobalar o'rtacha fatvo bergan kishilar bo'lib, ular qatoriga Abu Bakr (h.a. 51-13/5 73-634), Usmon ibn Affon (h.a. 47-35/577-656), Ummu Salama (vaf. 62/681), Anas ibn Molik (vaf. 93/711), Abu Said al-Xudriy (vaf. 74/693), Abu Hurayra (vaf. 63/682), Abdulloh ibn Amr (vaf. 65/684), Abdulloh ibn az-Zubayr (vaf. 73/692), Abu Muso al-Ash'ariy (vaf. 44/665), Sa'd ibn Abi Vaqqos (vaf. 55/675), Salmon al-Forisiy (vaf. 36/656), Jobir ibn Abdulloh (vaf. 78/697), Muoz ibn Jabal (vaf. 18/639), Talha ibn Ubaydulloh (vaf. 78/697), az-Zubayr ibn al-'avvom (vaf. 36/656), Abdurrahmon ibn Avf (h.a. 44-31/580-652), Imron ibn Husayn (vaf. 52/672), Abu Bakra ibn Horis as-Saqafiy (vaf. 51/671), Uboda ibn Somit (vaf. 34/654) lar kiritilgan,

Uchinchi guruhga kam sonda fatvo bergan sahobalar kirib, Abu-d-Dardo Uvaymir ibn 'omir (vaf. 32/652), Abu Ubayda ibn Jarroli (vaf. 18/639), Ubay ibn Ka'b (vaf. 21/642), Abu Ayyub al-Ansoriy (vaf. 52/672), Abu Zarr al-G'iforiy (vaf. 32/652), Hafsa bint Umar (vaf. 45/665), Safiya (vaf. 52/672), Miqdod ibn al-Asvad (vaf. 33/653), Amr ibn al-'os (vaf. 43/663), Hasson ibn Sobit (vaf. 40/660), Xolid ibn Valid (vaf. 21/642), Fotima bint Muhammad (vaf. 11/632), Fotima bint Qays (vaf. 50/670), Mug'ira ibn Shu'ba (h.a. 20-50/603-670), Bilol al-Habashiy (vaf. 20/641), Abbos ibn Abdulmuttalib (h.a. 51-32/573-653) kabi sahobalardan bir yoki ikkita fatvo naql qilingan. Bunday sahobalarning soni taxminan 120 atrofida deb qayd etiladi.

Olimlar sahobalarning ilmiy salohiyati bo'yicha huquqiy qarashlarining inobatga olinishi ko'zda tutilgan holda ularning darajalarini belgilab berishgan bo'lib, ularning boshida quyidagilar zikr qilinadi: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Abdulloh ibn Mas'ud, Abdulloh ibn Abbos, Zayd ibn Sobit, Oisha bint Abi Bakr, Muoz ibn Jabal, Abu-d-Dardo, Ubay ibn Ka'b, Abu Muso al-Ash'ariy, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn az-Zubayr, Abu Zarr al-G'iforiy, Salmon al-Forisiy va boshqalar.

— 50 —

Bu davrning xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, islom davlati chegaralari kengaygani sababli turli mintaqalardagi ijtimoiy holat ularning huquqiy tartibga solinishini taqozo qilar edi. Bularning ko'pchiligi Payg'ambar davrida huquqiy tartibga solinmaganligi bois xalifalarning o'zlar yoki atrofdagi sahobalar bilan maslahatlashgan holda tartibga solishar edi. Shu bilan birga ayrim sahobalar shaxsiy qarashlari asosida ham bularning yechim yo'llarini ko'rsatib berar edi.

Ikkinchidan, xulafoi roshidun davrida huquq masalalari davlat darajasida ko'rilib, huquq ijodkorlik jarayonida davlat rahbari qoshidagi kengash orqali

ishtirok etgan. Bu kengashning qarorlari keyinehalik ijmo sifatida qabul qilingan.

Umaviylar (661-750) davriga kelib, monarxiya tizimiga :>'tilishi huquqqa ta'sir ko'rsatdi. Xalifalar davrida huquq jodkorlik (ijtihad va fatvo) davlat darajasidagi masala sifatida :aralgan bo'lsa Umaviylar davrida xalq darajasiga tushib qoldi. Xatijada, ijtihad va fatvolar olimlarning ilmiy qarashlari sifatida namoyon bo'la boshladi. Ammo salohiyatli olimlar davlat 'omonidan qozilik mansabiga ta'yinlanishi bilan ular islom zuquqi nonnalarining himoyachilari sifatida harakat qilishlariga -nkon berar edi.

Umaviylar davrida ilk huquqiy maktablar yuzaga keldi. As- :da bu maktablarni "huquqiy maktab" deb atash shartlidir. Zero, : _ davrda ushbu maktablar tafsir, hadis va boshqa ilmlar uchun iam maktab edi. Islom huquqshunosligi tarixini o'rgangan olim- i: ulami huquqiy maktab deyishiga fiqh ilmining tarixida tutgan : mini ko'rsatishga urunish sabab bo'lgan. Shu bilan birga, bu r.iitablarning boshqa ilmlar tarixida ham o'mi katta bo'lgan. 30 bir tomondan fiqh ilmining hali mustaqil ilm sifatida ajralib duqmaganligini yoki olimlik deyilganda din sohasiga tegishli :: igan o'z davridagi mavjud barcha ilmlarni bilish lozim bo'l- ^nini ko'rsatadi deyish mumkin.

Bu davrda mavjud bo'lgan ilk huquqiy maktablar o'sha _i -Tdagi katta shaharlarda bu yerlarga kelgan sahobalarning ' :>girdlarni tayyorlashi bilan yuzaga kelgan.

Ilk huquqiy maktablar Makka, Madina, Basra, Kufa, Shorn ta Misrda shakllangan edi.

Makka va Madina islom olamining peyuxti edi. Xalifalar davrida Madina siyosiy poytaxt bo'lgan ^o'lsa. Makka diniy poytaxt edi, Bu shaharlarda sahobalar juda κ: 'o edi. Manbalarga ko'ra, Payg'ambar Hunayn jangidan so'ng Madinada 12000 sahobiyni qoldirgan bo'lib, ulammg taxminan 10000 kishi Madina yashab o'tishgan, qolganlar: esa, islom dini ilmlarini o'rgatish uchun boshqa o'lkalarga tarqalib ketishgan ekan. Madinada qolib ilm tarqatgan kishilardan Abu Bakr, Umar, Usmon; Ali (Kufaga ketguncha), Zayd ibn Sobit. Oisha, Ummu Salama, Hafsa bint Umar va Payg'ambarning boshqa xotinlari, Abdulloh ibn Umar, Ubayy, Talha ibn Ubaydulloh, Abdurahmon ibn Avf, Abu Hurayra kabi buyuk sahobivlarni sanab o'tish mumkin.

Kufa, Basra, Misr va Shomga sahobalar jo'natiJgan bo'lib, ularning sonini olimlar 300,atrofida deb ko'rsatishadi. Ularning l<o'pchiligi Kufa va Basra shahriga kelishgan ekan.

Kufa va Basra shaharlari Umar ibn Xattobning xalifalik davrida qurilgan, Bu yerda ilmiy muhitni shakllantirish, islom ilmlarini tarqatish uchun Abdulloh ibn Mas'ud xalifa Umar tomonidan jo'natigan. Kufaga Abdulloh ibn Mas'uddan tashqari Sa'd ibn Abi Vaqqos, Ammor ibn Yosir, Abu Muso al-Ash'ariy, Mug'ira

ibn Shu'ba, Anas ibn Molik, Huzayfa, Imron ibn Husayn kabi sahobalar kelib joylashishgan. Ali ibn Abi Tolib xalifa bo'lgach, poytaxtni Madinadan Kufaga ko'chiradi. U yangi poytaxtga mashhur sahobiy Abdulloh ibn Abbosni ham olib keladi.

Misr shahriga Zubayr ibn al-Awom, Abu Zarr, Amr ibn al-'os, Abdulloh ibn Amr, Shorn shahriga esa Mu'oz ibn Jabal, Abu-d-Dardo, Muoviya, Shimoliy Afrikaga Uqba ibn Omir, Muoviya ibn Xudayj, Abu Luboba, Ruvayf ibn Sobit kabi sahobalar kelib joylashishgan.

Bu o'lkalardagi olimlar islom ilmlari, xususan islom huquqi nomialarini mazkur sahobalar qarashlari va ulamning shogirdlarining fatvolari asosida o'rganishgan. Buning yonida mahalliy urf-odatlar va taomilni asos qilib olishgan. Natijada mazkur o'lkalarning olimlarining qarashlarida tafovut kuzatila boshlandi. Eng asosiy raqobat va munozara Hijoz (asosan Madina) va

Iroq (asosan Kufa) maktablari vakillari o'rtasida bo'lgan. Shunga ko'ra, olimlar ilk huquqiy maktablarning umumiy holda ikki guruhga bo'linganligini ta'kidlashadi: Hijoz maktabi va Iroq maktabi. Hijoz maktabiga Makka va Madina maktabi kirgan. Iroq maktabiga esa, Kufa va Basra maktabi kirgan. Shorn va Misrda- gi maktablar uncha katta ahamiyatga ega bo'lmagan bo'lsa ham olimlar ulaming Hijoz maktabi uslubida faoliyat yuritganligini ta'kidlashadi. Hijoz maktabining yetakchisi Sa'id ibn al-Musayyab (vaf. 94/712), Iroq maktabining yetakchisi esa Ibrohim ibn Yazid ibn Quvays an-Naxa'iy (vaf. 96/714) bo'lgan.

Hijoz va Iroq maktabi o'zaro raqobatining negizi sifatida olimlar tomonidan turli sabablar ko'rsatilgan. Shular qatorida quyidagilarni ham inobatga olish ahamiyatlidir.

Hijoz maktabining Iroq maktabiga e'tiroz bildirishlarining asosiy sabablaridan biri ulaming hadislarda no'noqligidir. Asli- da Hijozda sahobiylar soni ko'p bo'lib, eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobiylar ham Hijozda edi. Shu sababli bu mintaqada hadislarning soni ko'p edi. Hatto Umaviy xalifalaridan Umar ibn Abdulaziz poytaxtni Kufadan Madinaga ko'chirib, Madina hokimi (voliy) Abu Bakr ibn Hazmga Madina va uning atrofidagi sahobiylar va tobe'inlar biladigan hadislarni to'plashni buyuradi. Bu ushbu mintaqada ishonchli hadislarning ko'pligi sababli edi. Shu sababli ham hijozliklar iroqliklarning rivoyat qilgan hadislarini to'ulardagi manbalar orqali rivoyat qilinmas ekan, e'tiborsiz deb bilishar edi. Ammo bu e'tirozlarni keyinchlik yuzaga kelingan turli oqim vakillariga qaratilganligini ko'rsatib o'tish lozim. Ib'g'ri yo'ldagi ilm ahllariga bunday e'tirozlarni qaratish aslo : g'ri emas. Zero ular o'zlari rivoyat qilgan hadislarni mashhur sahobiylardan bevosita eshitishgan.

Bundan tashqari Kufa tarixida ham ko'pgina salbiy omor disalarning yuz berishi ularga nisbatan munosabatni o'zgartirardi. Bular quyidagilardir:

1. shia va xorijiyalar kabi turli guruhlarning o'z qarashlarini isoslash uchun hadislarni to'qish ishini ko'paytirgan edi;
2. yahudiylar va sasoniylar kabi eski davlatlari yo'qolgan imoalarning yashirin faoliyatlari ushbu mintaqada namoyon ro'lgan edi;
3. Kufa xalqi qaysarlik, o'jarlik. shikoyatchilik va boshqa salbiy xislatlari bilan tanilgan edi. Ularning bunday xislatlarini quyidagi tarixiy jarayonlarda ko'rish mumkin:

-53-

- xalifa Umar Sa'd ibn Abi Vaqqosni Kufaga hokim etib tayinlaganda, uning ustidan namozni yaxshi o'qitmaydi deb, shikoyat qilishdi. So'ng Umar uni o'zining kengashi (shuro) a'zosi etib qo'ydi, hatto uni o'zidan so'ng xalifa Ufaga saylanadigan maxsus guruhga ham kiritdi;

- Umar undan so'ng Ammor ibn Yosir va Abu Muso al- Ash'ariyni ham hokim etib tayinladi. Ammo ular ustidan БЯТ shikoyat qilib, lavozimidan bo'shatishdi;

- Oxiri Umar "Hech bir hokimni yoqtirmaydigan, hech bir hokim ham xushlamagan bu yuz ming kishidan kirm meni qutqaradi", deb nolidi.' Oxiri Mug'ira ibn Shu'bani "Yaxshilar senga ishonishsin, yomonlar sendan qo'rqishsin", deb tayinladi.

- xalifa Usmon davrida ko'p fitoalarga aralashib, oxiri uning oiimiga olib lcelgan isyonda ham qatnashishdi;

- xalifa Ali davrida Muoviya bilan urushda Alini hakamlikka rozi bo'lishga ko'ndirib. oqibati kutganlaridek bo'lmagach. Alining o'zini xato qilganlikda ayblashdi. Hatto Ali bundan so'ng duo qilib, "Ey Parvardigor! Menga ulardan xayrlisini ber, ularga mendan yomonini ber" dedi; -

- xalifa Hasan davrida Muoviya uning ustiga bostirib kelganda ular Hasanni qo'llab-quvvatlashmadi;

- Husaynni Kufaga kelsa yordam berishlariga ishontirib, u Kufaga qarab kelayotganida Karbaloda Yazidning askarlari bilan to'qnash kelganida yordamga kelishmadi.

- tarixda "zolim" nomi bilan mashhur bo'lgan Hajjoj ularga hokim etib tayinlandi va u hammaga zuhn qildi. Uning zulmi oqibatida ilm ahli ham, ilm ham jabrlandi.

Iroqliklar esa, hijozliklami ochiq nassga tayanmagan Madina urfini huquq manbai sifatida qabul qilishlariga e'tiroz bildirib, buning boshqa joylardagi mahalliy odatlar bilan bir xil huquqiy maqomga ega ekanligini ta'kidlashar edi.

Hijozliklar va iroqliklaming tafovuti muayyan prinsiplar bilan bir qatorda urf-odatdan ta'sirlanish va ustozlaming farqli ekanligiga borib taqalar edi.

– Umaviylar davrida ilk huquqiy maktablarning koʻzga koʻringan quyidagi vakillarini sanab oʻtish mumkin:

Madinada: Saʼid ibn al-Musayyab, Urva ibn az-Zubayr (vaf. 97/712), al-Qosim ibn Muhammad (vaf. 102/720), Xorija ibn Zayd (vaf. 100/718), Abu Bakr ibn Abdurrahmon (vaf. 94/713), Sulaymon ibn Yasor (vaf. 107/725), Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Utba (vaf. 98/716)“ Abu Bakr ibn Mahammad ibn Amr ibn Hazm (vaf. 120/738), Abu Jaʼfar ibn Muhammad ibn Ali (vaf. 117/735), Rabiʼat ar-Raʼy (vaf. 136/753), az-Zuhriy (vaf. 124/742) va boshqalar.

Makkada: Ato ibn Abi Raboh (vaf. 115/713), Mujohid (vaf. 100/718), Tovus ibn Kayson (vaf. 106/724), Ikrima (vaf. 150/767), Sufyon ibn Uyayna (vaf. 198/813) va boshqalar.

Basrada: Hasan al-Basriy (vaf. 110/728), Muhammad ibn Sinn (vaf. 110/728), Qatoda (vaf. 118/736) va boshqalar.

Kufada: Alqama ibn Qays (vaf. 62/682), Shurayh ibn al-Horis (vaf. 78/697), Masruq ibn al-Ajdaʼ (vaf. 63/683), Abdurrahmon ibn Abi Laylo (vaf. 148/765), Ibrohim an-Naxaʼiy (47-96/667-714), Saʼid ibn Jubayr (vaf. 95/714), Shaʼbiy Omir ibn Shurahbil 11 /-104/638-722), Hamod ibn Abi Sulaymon (vaf. 120/738) va boshqalar.

Shomda: Makhul (vaf. 116/734), Umar ibn Abulaziz (vaf. 101/720), Abu Idris al-Halvoniy va boshqalar.

Misrda: al-Lays ibn Saʼd (vaf. 175/791) va boshqalar.

§ 4. Fiqhning yuzaga kelish davri

^ Fiqh ilmi tarixchilarining barchasi mazhablar yuzaga kelgan Abbosiylar davrini fiqh ilmining rivojlanish davri deb bilishadi.

- ¹¹ bilan birga ushbu davr fiqhning ilm sifatida shakllangan davri hamdir.

Abbosiylarning taxtga kelishi bilan Umaviylardan farqli L Iaroq oʻzlarini din bilan bogʻliqliklarini koʻrsatishga urinishlari fiqhning ilm sifatida yuzaga kelishiga olib keladi.

Fiqlarning ilm sifatida yuzaga kelishigako ‘proqmazhablarning -zaga kelishi turtki boʻlgan. Buning sababi shundaki, ilk I shbu veto kishigaMadina shahrining 7 faqibi (al-fuqaho as-sabʼa) deyiladi

— 55 —

huquqiy maktablarda islom boshlangʻich talab va ehtiyoj asosida oʻrganilgan boʻlsa. Abbasiylar davrida barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini tizimli ravishda ishlab chiqishga muvaffaqiyatli mazhablarni yuzaga keltirdi. Mavjud barcha ijtimoiy huquqiy munosabatlarni, huquq manbalarini. huquqiy normalarni tizimli ravishda oʻrganish fiqh ilmining yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Bundan oldingi davrda ham fiqh boʻlganligi avtilsa ham. ammo u mustaqil ilm sifatida boʻlmay, umumiy holda

islom ta'limotini anglashgan, mohiyatiga yetish va xulosasini ba; - ma nosida bo'lgan.

Fiqhning ihn sifatida yuzaga kelishiga bundan boshqa quyidagi omillar turtki bo'lgan:

1. Ijtimoiy va iqtisodiy hayotning rivojlanishi bilan bir qatorda ulami tartibga soladigan va huquqiy mezonlarini belgilab beradigan huquqiy normalami ishlab chiqishni taqozo qiladi. Davlatning hududi kengayib. bu davrdagi asosiy iqtisodiy manba bo'lgan tijorat va qishloq xo'jaligi masalalari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan sug'orish tizimini, soliq tizimini huquqiy tartibga solish zaruriy ehtiyoj edi.

2. Umaviylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar sultonning irodasiga ko'ra tartibga solingan bo'lsa, yangi tuzumda Xulafoi roshidun kabi davlat boshqaruvini namoyon etishni istagan xalifalar chiqib, barcha huquqiy munosabatlar shar'iy fatvolar asosida tartibga solinishini va islom huquqshunoslari tomonidan ma'qullanishi bilan islomga muvofiq harakat qilhshini ko'z-ko'z qilishga urinishar edi.

3. Sahobalar va ulardan so'ng ilk huquqiy maktablar davridan beri yig'ilib kelgan amahy va nazariy-huquqiy ta'limotlar va qarashlar zaxirasining ko'payib borishi uiami bir tizimga keltirishni taqozo qilar edi.

4. Islom davlati hududiga kirgan yangi mintaqalardagi arab bo'lmagan xalqlaming mahalliy sharoitlari va urf-odatlarining islom huquqshunoslari tomonidan islom huquqiga muvofiqligi huquqiy jihatdan baholanishi lozim edi.

5. Huquqiy qarashlaming hadislami tahlil qilish (masalan, Molik ibn Anasning "al-Muvatto" asari) yoki huquqiy

— 56 —

kazuslarning to'planishi (masalan, Muhammad ibn Hasanning "al-Asl" asari) ko'rinishida kitoblarda yozila boshlashi fiqh ilmining shakllanishiga katta ta'sir qilgan. Ilk huquqiy maktablar davrida Ali ibn Abi Tolib avlodidan bo'lgan Zayd ibn Ali (vaf. 122/740)ning "al-Majmu' fi al-fiqh" asari yozilgan bo'lsa ham, ammo u asosan shia fiqhining rivojiga turtki bo'lgan boiib, sunniylar fiqhining rivojida o'mi sezilmaydi. Shu sababli ham bu asar ko'p hollarda islom huquqi tarixi kitoblarida zikr qilinmaydi.

6. Fiqhiy terminologiyalaming shakllanib borishi fiqhning mustahkam tizim va tushunchaga ega bo'lgan ilm sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Fiqh ilmining rivoj iga ta 'sir qilgan asosiy omil mazhablaming shakllanishi bo'lgan. Mazhab ilk huquqiy maktbalardan farq qilar edi. Ilk huquqiy maktablarda huquq haqidagi qarashlar savol so'rovchilar yoki boshqa ehtiyoj asosida, ya'ni ijtimoiy hayotdagi muammolarga bog'iq holda shakllanib borgan edi. Mazhablar shakllanganda esa faqat ijtimoiy hayot taqazosi emas, balki

maqsadli ravishda ijtimoiy hayot talabi va tug'ilishi mumkin bo'lgan muammolarni qamrab olgan holda tizimli ravishda huquqiy munosabatlarni tartibga solishga harakat qilingan.

Bu davrda salohiyati katta olimlar - mujtahidlar shakllangan bo'lib, bugungi kunda ulardan 13 tasining mazhabi shakllanganligi aniqlangan. Ular quyidagilar:

1. al-Hasan ibn Yasor al-Basriy (21-110/642-728);
2. Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit (80-150/699-767);
3. Abdurrahmon ibn Umar al-Avzo'iy (88-157/707-774);
4. Sufyon ibn Sa'id as-Savriy (97-161/716-778);
5. al-Lays ibn Sa'd (94-175/713-791);
6. Molik ibn Anas al-Asbahiy (93-179/712-795);
7. Sufyon ibn Uyayna (107-198/725-814);
8. Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iy (150-204/767-820);
9. Ishoq ibn Ibrahim Rohuya al-Hanzaliy (161-238/778-853);
10. Abu Sahr Ibrohim ibn Xolid al-Kalbiy (vaf. 240/854);
11. Ahmad ibn Flanbal (164-241/780-855);
12. Dovud ibn Ali az-Zohiriy (201-270/816-884);
13. Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (224-310/839-923).

— 57 —

Mujtahidlarning ko'p shakllanishiga bu davrdagi huquqiy plyuralizm zamin yaratgan.

Mazkur mujtahidlar bilan bir qatorda, boshqa salohiyatli olimlar ham bo'lganki, ular mazkur mujtahidlarning ustozlari but bo'lishgan. Ammo ular mujtahid sifatida ko'rsatilmagan. Masalan, Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iyga ustozlik qilgan. Shofe'iy mujtahid sifatida manbalarda zikr qilinsa, Muhammad Shayboniy esa, mujtahid sifatida ko'rsatilmaydi. Buning asosiy sababi mazkur 13 kishi o'z davrida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimi va usuli bo'yicha hamda alohida huquq ijodkorlik bo'yicha mustaqil prinsiplarni ishlab chiqishganligi uchun ham ular mujtahid sifatida e'tirof etiladi. Muhammad Shayboniy kabi kishilar esa bunday mustaqil prinsipga ega bo'lmay, balki ustozlarining prinsiplariga ko'ra harakat qilganligi uchun mustaqil mujtahid deb e'tirof etilmagan.

Shu bilan birga mazkur shaxslarning tashkil qilgan mazhablari hammasi ham yashab ketmagan. Balki ijtimoiy hayotga moslashuvchanligi va real turmushga muvofiq kelishiga qarab, insonlar ularni saralashgan. Ko'pchiligi o'z tarafdorlariga ega bo'lmay barham topib ketishgan. Ba'zilari, masalan tabariy mazhabi kabilar bir asrcha yashab, keyin yo'qolib ketgan. Avzo'iy mazhabi biroz vaqt amalda bo'lib, so'ng molikiy mazhabi bilan qorishib ketadi. Bugungi

kunda faqat 4 mazhabgina o'zining yashovchanligi, hayotiyligi sababli saqlanib qolgan.

Bu davming xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Muftahidlarning o'zlari yoki ularning shogirdlari tomonidan mazhab qarashlarini aks ettiruvchi fiqhiy kitoblar yozilish an'anasi keng tarqaladi. Masalan, hanafiy mazhabi bo'yicha Abu Hanifaning shogirdlaridan Abu Yusuf (113/82-731-798) al-Xaraj, Ixtilof Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo; Muhammad Shayboniy (vaf. 189/805) al-Asl (al-Mabsut), al-Jome' al-kabir, al-Jome' as-sag'ir, az-Ziyodot, as-Siyar al-kabir, as-siyar as-sag'ir, al-Hujja alo ahli al-Madina; molikiy mazhabi bo'yicha Molik ibn Anas al-Muvatto, shogirdlaridan Asad ibn al-Furot al-Asadiya (vaf. 213/828), Sahnun ibn Adbissalom

— 58 —

(vaf. 240/854) al-Mudawana, Muhammad ibn Ibrohim ibn al-Mawoz (vaf. 269/882) al-Mawoziya; shofe'iy mazhabi bo'yicha Muhammad ash-Shofe'iy al-Umm, ar-Risola, shogirdlaridan Ismoil ibn Yahyo al-Muzaniy (vaf. 247/877) al-Muxtasar, Yusuf ibn Yahyo al-Buvaytiy (vaf. 231/845) al-Muxtasar; hanbaliy mazhabi bo'yicha Ahmad ibn Hanbal al-Musnad, al-Xiraqiy (vaf. 334/945) al-Muxtasar asarlari yozilgan.

2. Fiqh ilmining rivojiga katta xizmat qilgan usulul-fiqh ilmi imom Shofe'iy tomonidan asos solindi. Bu ilm keyinchalik mazhablarning huquq ijodkorlik bo'yicha o'z prinsiplarini aniqlab olishlariga turtki bo'ldi.

3. Mazhab asoschilari va ularning talabalari o'rtasida ilmiy munozaralar ko'p sodir bo'lib, bu ularning huquqiy qarashlarini himoya qilish yoki ularni o'zgartirishiga olib kelgan. Masalan, Abu Hanifa va Abdurahmon Avzo'iyning muayyan huquqiy masalalarda munozara qilib, Abu Hanifaning ustunligini namoyon etishi, Molik ibn Anasning shogirdi boigan imom Shofe'iy Abu Hanifaning shogirdi boigan Muhammad ash-Shayboniy bilan uchi'ashib, undan ta'sirlangan va olimlarning ta'kidlashlaricha, hanafiy va molikiy mazhabining sintezi asosida o'zining mazhabini yaratishga muvaffaq boiganligi, Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ash-Shayboniy Molik ibn Anasdan al-Muvatto asami o'rganib, uning qarashlarini tahlil qilgan va al-Hujja nomli asarini yozganligi, Molik ibn Anasning shogirdi Asad ibn al-Furot Abu Hanifa shogirdi Muhammad ash-Shayboniydan hanafiy mazhabini o'rganib, so'ng bulami sintez qilib al-Asadiya nomli kitob yozishi va boshqalarni keltirish mumkin.

§ 5. Fiqhning rivojlanish davri

Bu davmi rivojlangan deb aytishning o'zi muammolidir. Zero ko'pchilik islom huquqi tarixchilari bu davmi turg'unlik yoki qotib qolish davri sifatida ko'rsatadi. Buni bu davrda nazhablarga taqlid ruhining singib, fiqh ilmining

mazhab doirasi :heklanishi va natijada oldingi davr kabi rivojlanmay, orqaga teiish davri sifatida namoyon bo'lishi bilan asoslashgaurinishadi.

— 59 —

Ammo biz bu yerda mazhabga ergashish salbiy yoki ijobiy degan yondashuvni bu tasnifda asos qilib olmadik. Balki fiqhning ilm sifatidagi holati bizning asosiy obyektimiz boiganligi bois, uning rivojlanish evolutsiyasidagi o'midan kelib chiqqan holda bu davmi rivojlanish davri deb ayta olamiz. Sababi keyingi davrdagi fiqh ilmining ildizi, hatto bugungi kunda islom huquqi haqida gap ketganda ham ushbu davrdagi fiqh ilmining yutuqlari asosiy manba va mezon sifatida olinadi.

Fiqh ilmi rivojining bu davrini muayyan vaqt bilan cheklab ko'rsatish mushkul. Chunki mazhablarning shakllanishida avlodlar almashinuvi mazhablarga qarab turli davrlarda amalga oshgan. Aslida mazhab asoschilari va ulaming shogirdlari birinchi navbatda mazhab qarashlarini ko'rsatib bensch, kerak o'rmlarda huquqiy asoslash ishlariga ko'proq e'tibor berishgan. Keyingi avlod esa ulami tahlil qilishgako'proq e'tibor berishgan. Chunki oldingi davrda kitob yozish amaliyoti endi shakllanayotgan edi. Bu davrga kelib, mazhablar o'rtasida ko'p munozaralarga, qarashlar tafovutiga sabab bo'lgan hadislarning ishonchlilik darajasini aniqlash va mujtahid yoki uning shogirdiga yetib kelishi muammolari ulaming qarashlarida tafovutga sabab bo'lgan edi. Bu davrga kelib hadis kitoblarining yozilishi, muhaddislar tomonidan to'planishi mujtahidlarning qarashlarini huquqiy tahlil qilish va asoslash ishlarini osonlashtirdi. Bu xususan mazhablar o'rtasidagi raqobat jarayonida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davming xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Ijtihad eshigi yopilganligi e'lon qilinib, mazhablarga ergashish zarur degan fikrning tarqalishi. Mazhablar o'rtasidagi raqobatda 4 ta mazhab o'zimg yashovchanligini namoyon etgan holda boshqa mazhablarni ijtimoiy hayotdan siqib chiqardi. Natijada ulamolar insonlarning mazkur 4 mazhabdan biri bo'yicha hayot kechirish lozim degan fikmi ilgari surishdi va yangi mazhablarning yuzaga kelishining oddini olish maqsadida ijtihad "eshigi"ni yopiq, ya'ni ijtihad qilishga vakolatli va salohiyatli shaxslar bimdand buyog'iga chiqmaydi, deb e'lon qilishdi. Bu harakatning uzviy davomi sifatida ijtihad

— 60 —

qilish shartlarini og'irlashtirib, huquq ijodkorlik salohiyatlarni tabaqalashtirishga harakat qilingan.

2. Mazhab qarashlarini tahlil qiladigan kitoblarning yozilishi. Bu davrning asosiy yutuqlari ham islom huquqining Idassik manbalariga aylangan fiqhiy kitoblarning yozilishi edi. Ammo bu davrdagi kitoblar yozilish maqsadlariga ko'ra bir- biridan farqlanadi. Quyida ulami tasniflashga harkat qilamiz:

- mazhab asoschilarining huquq ijodkorlik jarayonida rioya etgan va asoslangan prinsiplarini aniqlash, Qur'on, sunna, ijmo kabi manbalar bilan ishlash qoidalarini ko'rsatib berish maqsadida usulul-fiqh kitoblari yozilgan. Jumladan, al-Karxiy (260-340/874-952), al-Jassos (vaf. 370/980), ad-Dabusiyy (vaf. 439/1039), as-Saraxsiy (vaf. 483/1090), al-Bazdaviy (vaf. 490/1097)lar hanafiy mazhabi bo'yicha, Imomul-haramayn al- Juvayniy (vaf. 478/1085) va Abu Homid al-G'azzoliy (vaf. 505/1111)lar shofe'iy mazhabi bo'yicha, Abu Bakr al-Boqilloniyy (vaf. 403/1012), Abdulvalid al-Bojiy (vaf. 474/1081)lar molikiy mazhabi bo'yicha, Abu Ya'lo al-Farro (vaf. 458/1066), Abu Xattob al-Qalvazoniy (vaf. 510/1116)lar hanbaliy mazhabi bo'yicha huquq ijodkorlik prinsiplarini ishlab chiqishgan va ulaming asarlari bu sohada klassik asar hisoblanadi;

- mazhab asoschilarining qarashlarini tizimlashtirishga urunilgan asarlar. Bunda bir qancha kitobda yoki muayyan kitobda tarqoq holdagi qarashlarni to'plash va tartibga solish ko'zda tutilgan. Masalan, hanafiy mazhabi bo'yicha mazhab asoschilarining qarashlarini al-Hokim ash-shahid (vaf. 334/945) al-Kofiy va al-Muntaqo, at-Tahoviy (239-321/853-933) al- Muxtasar asarlarini yozgan;

- muayyan mazhabning ustunligini ko'rsatishni maqsad qilgan asarlar. Bunday asarlar ko'p bo'lib, bular bir necha xil bo'lgan. Birinchisi, umumiy holda mazhab qarashlarini bayon etish asnosida mazhabning ustunligini bayon etgan asarlar. Bunga hanafiy mazhabi bo'yicha as-Saraxsiyning al-Mabsut, al-Kosoniyy (vaf. 587/1191)ning Badi' as-sanoi', al-Marginoniyy (530-593/1135-1197)ning al-Hidoya, shofe'iy mazhabi bo'yicha al-Movardiyy (364-450/974-1058)ning al-Hoviy, ash-Sheroziy

(393-476/1003-1083)ning al-Muhazzab asarlarini misol qilish mumkin. Ikkinchisi, muayyan huquqiy instituted tahlil qilar ekan muayyan mazhabning ustunligini isbotlashga urinadigan asarlar. Masalan al-Quduriy (362-428/973-1037) at-Tajnd, az- Zamaxshariy (467-538/1075-1144) Ru'us al-masoil asarlarida hanafiy mazhabining ustunligini ko'rsatishga uringanligini ko'rish mumkin;

...
- mazhablaming umumiy ixtiloflari va tafovutlarini ko'rsatib berishga uringan asarlar. Bularga at-Tabariy (224-310/839-923)- ning Ixtilof al-fuqaho, Ibn Rushd (520-595/1126-1198)ning Bidoyat al-mujtahid, Ibn Hazm (vaf.. 438-1046)ning al-Muhallo nomli asarlarini misol qilish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. *Fiqhning yuzaga kelish sabab va omillarini tushuntirib bering.*
 2. *Fiqh tushunchasini izohlang.*
 3. *Fiqhning rivojlanish bosqichlari qaysilar?*
 4. *Payg'ambar va sahobalar davrining xususiyatlarini ko'rsating.*
 5. *Ilk huquqiy maktablar haqida ma'lumot bering.*
 6. *Mazhablar bilan ilk huquqiy maktablarning farqi nimada?*
 7. *Ahli ray va ahli hads yo'nalishlarining paydo bo'lish sabablari nima?*
- 4- **BOB: ISLOM HUQUQINING ASOSIY YUNALISHLAR VA MAZHABLARI (HUQUQIY MAKTABLARI)**

Tayanch iboralar: *ijtihad va mujtahid, shoji'iylik, rivoyat va diroyat, hanbaliylik, sahobalar, fiqh maktablari, tobe'inlar, imomlar, ixtiloflar, juz'iy masalalar, mazhablar, urf, yo'nalishlar, sunniylik, hanafiylik, shialik*

§ 1. Islom huquqida ijti­hod va fiqhiy maktablarning paydo boiish sabablari

Islom huquqida ijti­hod qiyos va ijmoda qo'llaniladigan metod (uslub) hisoblanadi. Payg'ambar alayhissalom Muoz ibn Jabal va hazrat Ali­ga ijti­hod qilishga ruxsat berib, Abdulloh ibn Mas'udga «Fikringga tayanib ijti­hod qilgin», deb tavsiya etgan edilar.

Ijti­hod lug'atda, bor toqat va imkoniyatni biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun ishlatishdir.

«Ijti­hod» fiqhiy atama sifatida faqih tomonidan bor imkoniyatni amaliy hukmlarni tafsiliy dalillar, ya'ni asosiy manbalardagi muayyan nasslardan chiqarib olish uchun ishlatish yoki shariat hukmlarini qiyos orqali Qur'on va sunnadan belgilab olish demakdir.

Ayrim usulul-fiqh olimlari ijti­hodni ikki yo'nalishga bo'lganlar: birinchisi hukmlarni belgilab olib bayon etishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi, chiqarib

olingan hukmlarni tatbiq etish va yuz bergan hodisalar bo'yicha zamon taqozosiga binoan belgilanmagan hukmlarni «taxrij» etishdir.

Birinchi yo'nalish «ijtihodi komil»dan iborat bo'lib, hukmlarni shariatning asosiy manbalaridan chiqarib olgan buyuk faqihlarga xosdir.

Ikkinchi yo'nalishga tegishli bo'lgan mujtahidlar «taxrij» usulini amalga oshiruvchi va hukmlarning umumiy qoidalarini juz'iyamaliy masalalarga tatbiq etuvchi olimlardan iborat.

— 99 —

«Komil mujtahidlar» tomonidan mazkur umumiy qoidalar asosida hech qanday fikr bildirilmagan yangi masalalarning hukmi ular tomonidan aniqlanadi.

Komil mujtahid salohiyat va mustaqillik bilan amal qilishi uchun bir qator shartlar belgilangan. Biz ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. Arab tili va adabiyotini unga tegishli bo'lgan barcha fanlar, ayniqsa, grammatik qoidalar, badiy', bayon va ma'oniy ilmlarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'yicha yetuk mutaxassis saviyasida bilishi shart.

2. Qur'oni karimning oyatlarini, ularning barcha lug'aviy va shar'xy ma'nolari, har birining nozil bo'lish sabablari, nosix va mansuxi va boshqa xususiyatlarini chuqur bilishi kerak.

3. Sunna (hadis ilmi)ni har tomonlama qamrab olib, hadis turlari, ularning i;oviyalarini bihb, rivoyat va diroyat bo'yicha yetarli ma'lumotga ega va yuksak hadisshunos darajasiga ko'tarilgan bo'lishi lozim.

4. Ijmoga o'rin bolgan mavzular va ixtilof yuz bergan masalalar bo'yicha chuqur ma'rifat egasi bo'lib, olimlarning bilittifoq ijmoi asosida hech qanday shubhasiz qabul qilingan masalalar (namoz, uning rak'atlan va ado etish vaqtlari, zakot, uning farizasi va miqdorlari, haj va unga tegishli odob va msumlar, ro'za va uni tutish vaqti, meros asoslari, shaxsga harom bo'lgan ayollar va mutavotir xabarlar orqali ijmo asosida belgilangan boshqa hukmlar)ni, shuningdek, sahobalar davridan tortib, mujtahid imomlar davrigacha va ulardan keyingi olimlar davrigacha islomiy me'yorlar bo'yicha yuz bergan ijmolami bilishi shart.

5. Salafi solih tomonidan bo'lib o'tgan ijmo mavzularini bilgan holda, sahobalar, tobein va ulardan keyingi buyuk mujtahidlar ixtiloflarini har tomonlama anglab olishi va shu yo'sinda Madina fiqh uslubi va Iroq fiqh uslubini yaxshi tushunishi kerak.

6. Imom Shofi'iyning ta'kidlashicha. ijtehad qiyosning barcha tomonlari, yoi-yo'riqlarini bihb ohshdan iborat. Hatto u ba'zan ijtehadni faqat qiyosdan iborat deb bilaan.

Mujtahid qiyosni chuqur anglab olish uchun quyidagi uch mavzu bo'yicha ilm egasi bo'lishi kerak:

, ^“Π’ naSSkr tayanchi bo‘lgan usullami va ulardan e lb chiqadigan hukmlaming
asosi bo‘lmish illatlar (sabablar)ni
bogt,, “ o‘1Shl 10TM’ №№H fflatlar o r f “ ’ «1 bilan Ikkmchidaa, qiyosnmg barcha
qoidaqonunlarini diaoat hibm

u“h_bS_ozi^{bu}Λ o‘imlar) *“

oJish^{Fl}t^yo^hUk^Hlardi^{fh} naZarda tUtUgan ma⁴sa^ddlami anglab

чОМа,”ГЫЫГОЫГаГ,Шо’ “ “>

tUShUnish Va to‘S‘ri baholashga qodir bo‘lish. Ya’ni - g n fikmi noto‘g‘ri
fikrdan, baqiqatni unga aarshi hn‘l narsalardan ajrata oiish malakasiga ega
bo lislf ^ bo

Π,yaC va so^{giom} e’tiqodga ega bo'lish NecalH ezgu niyat msomi
haqiqatga yetishtirganidek yomon va vovuz myat odanmi zalolatga boshlab,
to‘g‘ri yo‘ldTadalSf Shumngdek, e’tiqodi sog‘lom bo‘Imfgan "kishi hech q^on
g va sog lom hukm clnqarishga erisha olmaydi

Birin,bΓ If lhod?‘ qUyidagi daraJalar^ga bo‘lganlar. imehi darajadagilar, shariat
bo‘yicha mujtahidlar boiib

=5fГйадйГ

CSw,tT^a‘za“fer>iy

“

Masalan **T** **Bakr Asam Cardan edi.**

.TaO

Bakr Asam turmushga chiqarish masalasida sag‘ira (balo’s‘atea yetmagan qlz)

lKtldan vako|a, qoim ^ ^

va faqihlar ko‘pchiligiga qarshi turadi, Shuningdek, Abulqosim va Ashhab
Buvaytiy molikiy mazhabi bo‘yicha hamda Maziniy shofi‘iy mazhabi bo‘yicha
ayrim far‘iy masalalarda mazhab peshvolariga qarshi turadilar.

Uchinchi darajadagilar, mazhab bo‘yicha mujtahidlar bo‘lib, usul va furu’
bo‘yicha mazhab imomiga qarshi turmasdan, faqat imomdan biron ra’y va fikr
mavjud bo‘lmagan masalalar bo‘yicha ijti hod qilish vakolatiga egadirlar.

To‘rtinchi darajadagilar, taijih qiluvchi (ustun qo‘yuvchi) mujtahidlar

(as'hobut-taijih)dan iborat bo'lib, turli masalalar bo'yicha rivoyat qilingan nazariyalarning ayrimlarini ayrimlaridan ustun qo'yish vakolatiga egadirlar.

Beshinchi darajadagilar, istidlol qiluvchilardan iborat bo'lib, bir fikmi boshqa bir fikrdan ustun qo'ymasdan, ishonchga sazovor bo'lgan so'zlarni izohlab berib, hukmni tarjih qilmasdan dalillarni solishtirib ko'radilar, masalan, «bu undan ko'ra qiyosga muvofiqroq» deyдилar yoki rivoyatlarini tarjih qiladilar.

Abu Zahra ibn Obidin zikr etgan guruhlardan 5 darajadagilar bilan 4-darajadagilar oralarida farq aniq emasligi, shuning uchun oxirgi uch guruh faqat muxarrijlar va tarjih qiluvchilar guruhlariga qisqartirilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Oltinchi darajadagilar muqallidlar guruhlaridan iborat bo'lib, so'zlar va rivoyatlarini tanlab olish bo'yicha chegaralangan ijtiҳod salohiyatiga ega bo'lsalar ham, haqiqatda ular taqlidchilardir. Faqat shunchaki mazhab sohasida tafsir etish va chegaradan chiqmasdan aqliy faoliyat yuritish malakasiga egalar.

Ammo quyidagi ikki guruh faqat muqallid bo'lib, fiqh hukmlarini to'plash va tartibga solish ishlari bilan shug'ullanib, fiqhiy ijtiҳod vakolatiga ega emaslar. Ular huffoz (hofizlar) tabaqasi va muqallidlar tabaqalaridir.

Hofizlar tabaqasi mujtahidlardan emaslar, lekin mazhab bo'yicha chiqarilgan hukmlar va rivoyatlarini biladilar, ularning so'zlari ijtiҳod bo'yicha emas, balki naql va rivoyat qilish bo'yicha hujjat hisoblanadi. Ular mazhab sohasida amq rivoyatlar va tarjih sohasida eng kuchli fikrlarni rivoyat qilishda ishonchga sazovorlar. Ibn Obidin ta'kidlashicha, ularda eng kuchli rivoyatlarini kuchli va kuchsizlaridan ajratib olish salohiyati

mavjud. U Kanz, Durrulmuxtor va al-Viqoya mualliflarini ushbu tabaqadan deb hisoblagan.

Muqallidlar tabaqasi faqat tarjih masalalarini o'z ichiga olgan kitoblarni tushunsalar ham, so'zlar va rivoyatlar orasida tarjih qilishga qodir emaslar. Ibn Obidin ularni «to'g'ri noto'g'ridan ajrata olmaydigan, o'ng bilan so'lning farqiga bormaydiganlar» deb tavsif qilib, ularning izidan borganlarga afsus va nadomat bildirgan.

Hijriy II asr boshidan IV asr o'rtalariga qadar ijtihodning oltin davri hisoblanadi. Bu davrda mazhablar vujudga kelgan va nazariyalari taqlid etilgan o'n uch mujtahid mavjud bo'lgan.

Ijtihodning hozirgi kundagi o'mi haqida Abu Zahra to'xtalib, haqiqatanham ijtihod eshigi yopilganmi, degan savolni tekshirib o'tib, ijtihod to'xtatilmagan degan fikmi qo'llab kelgan faqihlar. jumladan, hanbaliy faqihlarining ayrim fikrlarini eslatib o'tgandan keyin quyidagicha xulosa chiqaradi:

«Insonning aqli va tafakkuri uchun Alloh ochgan eshikni yopishga hech kim haqli emas. Bunday so'zni aytgan kishi qanday dalil va manbaga tayanadi? Nega u o'ziga ravo ko'rgan ishni boshqalarga noravo deb isbotlamoqchi boladi? Bunday to'sqinlik yaratish odamlarni Qur'on, sunna va salafi solih asarlaridan uzoqlashtirdi.

Ahmad Shalabiy o'zining «Mavsuat ul hazoratil islomiya» (Islom tamadduni qomusi) nomli asarining sakkizinchi jildida hozirgi davrda ijtihodga o'tish zaruriyati haqida quyidagi fikmi bildiradi:

«Bugungi kunda o'z fikrlarini bildirish, Qur'on va hadislariga murojaat qilish, sharoit o'zgarishi oqibatida hosil boigan yangi huquqiy muammolar bo'yicha ijtihodga da'vat qiluvchi yangi bir oqim yuzaga kelgan. Uning ta'kidlashicha, ushbu asr (XX asr) boshlarigacha ijtihod qilish zamrligi bo'yicha hech qanday fikr mavjud emasdi. Keyinroq Shayx Muhammad Abduh bu masalani ko'tardi. Bunday fikr zamon talabini tushunmagan kishilarga yoqmagan boisa ham, asta-sekin o'z yo'lini topa bordi va katta olimlari ijtihod qilish zamrligi haqida ochiqdan ochiq so'z yurita boshladilar. Bora-bora ushbu g'oyani qo'llab- quvatlovchilar soni oshib bordi. Bu esa ijtihod uchun yangi bir bosqich hisoblanadi».

Bugungi kunda islom huquqi sohasida bir qator zamonaviy muammolarni yechish uchun ijtihoddan foydalanish g oyasi homiylaridan biri sudanlik huquqshunos olim, qiyosiy qonunshunoslik va jinoyat huquqi bo'yicha mutaxassis Abdulloh Ahmad anNa'im arab va ingliz tillarida nashr etilgan o'zining bir qator huquqiy ilmiy asarlari bilan mashhur. Uning «Nahva tatviyrittashri'il-islomiy» kitobida ta'kidlanganidek, bugungi kunda bir qator muammolar o'z yechimini topmagan. Shuning uchun u ijti hod yo'liga qo'yilgan to'siqlarni olib tashlash zarurligini tavsiya qilib, bu o'rinda sahobalarning eng buyuklaridan biri bo'lmish Umar ibn Xattob uslubidan foydalanishga chaqiradi.

Uning ta'kidlashicha, Hazrati Umar o'z davrining sharoitidan kelib chiqib, shaxsiy fikrga tayangan holda ijti hod qilgan edi.

Misrlik atoqli olim Muhammad Husayn Haykal «AlForuq Umar» nomli kitobida bu haqda shunday yozadi.

«Hazrat Umar iymoni kuchliligi va Rasulullohning izchil izdoshi bo'lgan sababli, nassga qarshi bo'lgan hollarda ham jasorat bilan ijti hodga qo'l urardi».

VIII va IX asrlarga kelib Qur'onni sharh va tafsir etish, Payg'ambar hadislarini bo'yicha tadqiqot olib borib, ularni to'plash hamda soxta hadislardan ajratish sohasida izchil va tabiiy bo'lmagan bir faoliyatning guvohi bo'lamiz. Usulul-fiqh ilmi asosida shar'iy manbalar aniqlanib, sunniylik oqimida to'rtta asosiy mazhabning har biri o'ziga xos yo'nalishni belgilab olgan holda, rivojlanish va taqalish bosqichlarini bosib o'tdi. Undan so'ng, ushbu mazhablar doirasidan chiqmaslik, faqihlar va mazhab tarafdorlari uchun taqlid etilishi zarur bolgan bir an'anaga aylanib qoldi. Har bir mazhab tarafdorlari o'sha mazhab bo'yicha o'z imomlari izidan borishi zarur deb topildi.

Ba'zi bir faqihlar bunday taqlidning chegarasini buzib o'tib, mazhab doirasidan chiqqan holda to'g'ridan-to'g'ri Qur'on, sunna va sahobalar rivoyatlariga murojaat qilish bilan ijti hod qilish vakolatiga ega ekanliklarini da'vo qilgan bo'lsalar ham, mujaddidlar, ya'ni yangilashtiruvchi yoki tiklovchi sifatida tanilgan bunday olimlar o'z faoliyatlarini; arayonida qabul qilingan fiqhiy qoidalar doirasidan chiqqan bo'lmadi. Ular manbalar yoki

— 104 —

uslublar yoxud islom qonunchiligining umumiy tushunchalari va asoslari bo'yicha hech qanday ahamiyatga ega biror-bir vangilik kirgizishga muvaffaq bo'lmadilar.

Islom tarixida davlatchilik (imomat yoki xilofat) masalasi bo'yicha sunniylik (ahli sunna va-1 jamoa) va shialik oqimlari vujudga kelgan. Sunniylik Muhammad payg'ambar (a.s.)dan so'ng Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning xalifaliklarini qonuniy sifatida e'tirof etishsa, shialar Alidan oldingi uchta

xalifaning xilofatini qonuniy deb bilishmaydi. Ushbu siyosiy qarash rivojlanib, aqidaviy va huquqiy qarashlarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Natijada bu bo'linish e'tiqodiy bo'linishga olib keldi. Hozirgi kunda sunniylik va shialikga mansub bir nechta huquqiy mazhablar mavjud. Masalan sunniylikda 7 ta, shialikda 3 ta mazhab bo'lgan.

Sunniylik oqimi, aytib o'tganimizdek, to'rtta asosiy mazhab (hanafiy, molikiy, shofi'iy va hanbaliy huquq maktablari)ga bo'linadi. Ulaming mushtarak tomonlari shundan iboratki, Qur'on, Sunna, ijmo va qiyosni asosiy manba deb biladilar. Ulaming farqlari asosiy masalalar bo'yicha quyidagilardan iborat:

birinchidan, u yoki bu huquqiy manbaga ko'proq e'tibor berish;

ikkinchidan, har bir huquqiy muammoni o'ziga xos va boshqalarga o'xshamaydigar? us'lubda hal qilish;

uchinchidan, manbalardan foydalanish qoidalarining farqli bo'lishi.

Biz quyida, mazkur mazhablar haqida ma'lumot berib o'tamiz.

§ 2. Shofi'iy fiqh maktabi

Imom Shofi'iy 150/767-yili buyuk mujtahid olim Abu Hanitaning vafot etgan yili Falastinning G'aza shahrida dunyoga keladi va 204/820-yili 29 - rajab/19-yanvarda juma kuni tunda Misrda vafot etadi va Karafe degan joyga dafn etiladi. Abu Hanifa vafot etgan kechada boshqa bir imom, ya'ni Shofi'iyning dunyoga kelgani musulmonlar uchun katta judolik bo'lmadi.

Shofi'iyning otasi Idris i sh bi lan Falastinning G azza shahriga boradi va u yerda vafot etadi. Shofi'iy tug ilganidan keyin ikki yil o'tib onasi uning oliyjanob naslini saqlab qolish niyatida ota vatani bo'lmish Makkai Mukarramaga olib ketadi va ular Baytu-1- Harom yaqinidan qo'nim topadilar. Onasi asli Azd yamanlaridan bo'lgan. Biroz muddatdan so'ng onasi Muhammadni maktabga joylaydi, ammo darslar pullik bo'lgani uchun yosh imomning onasi uni to'lashga imkon topa olmaydi. Lekin Shofi'iy juda ham zehni o'tkir va tirishqoq bo'lganligi uchun maktabdorlar uni bepul o'qitishga ahd qiladilar. Shofi'iy yetti yoshidayoq Qur'oni karimni yod olib, hadislarni o'rganadi. O sha vaqt arablarning odatiga ko'ra sahrodagi Banu huzayl qabilasiga yuboriladi. Bu qabila o'zining suhanzftbonligi va she'riy an'anasi bilan mashhur edi. Shofi'iy u yerda 10 yil yashab u yerlik olimlardan she'r va xabarlarlarni, arab tili fasohati vabalog atini, shuningdek Qur on va hadis ilmlarini o'rganadi.

Shofi'iyning hotirasi kuchli bo'lganligidan, hadislarni bir marotaba aytilganida yodlab olardi. So'ngra darsdan chiqib eslab olgan hadislarini sopolga yoki teriga yozib olar edi. Keyinchalik Imom Shofi'iy bir gap eshitsa, uni hech qachon unutmaganligini aytadi. So'ngra Makkaga qaytib kelib, Makka muftiysi Muslim ibn Xolid az-Zanjiydan fiqh va hadis ilmlarini o'rganadi va uning huzurida fatvo berish darajasiga yetadi. O sha vaqtda bor yo g i 15 yoshlarda edi. Keyinchalik ustozlarining maslabati bilan Madiniga Molik ibn Anas (vaf. 179 /795 y.) huzuriga boradi.

Imom Molik vafotidan so'ng u o'z hayotini ash-Shayboniy rahbarligida Iroq fiqhini o'rganishga bag ishlaydi. Natijada uning usulida iroq va hijoz fiqh nazariyasi ishlab chiqiladi, ya ni ahli hadis bilan ahli ra'y va qiyos tarafdorlarining ihni unda birlashadi. 187-yilhijriydaMakkada, 195-yilhijriydaBag'dodda Ahmad ibn Hanbal (vaf. 241/855 y.) bilan uchrashib uning fiqh, usul, nasx va mansux mavzularidagi qarashlari bilan tanishadi. Imom Ahmad ibn Hanbal Shofi'iyning ilmini e'tirif etib: "Kimki qo'lga siyoh bilan qalam olsa, uning zimmasida Shofi'iyning minnati bor. Agar Shofi'iy bo'lmaganlarida hadis va fiqhni bilmagan bolar edik. Fiqh eshiklariga qulf solingan edi. Alloh Shofi'iy sababli, u eshiklarni ochib berdi", deb aytadi.

— 106 —

Keyinchalik yana Makkaga qaytib Haramda dars beradi va o'sha yeming olimlari bilan birga uning shogirdiari ham u kishining darslarini qunt bilan o'zlashtiradi. So'ngra Shofi'iy yana Iroqqa qaytadi va u yerdan o'zining xos shogirdiari bilan Misrga boradi (199/815 y.). Misrlik ulamolar Imomni katta ehtirom bilan kutib olib, undan tahsil olishadi. Shofi'iy Misrdagi eng katta masjid "Amr ibn Os" da talabalarga fiqhdan dars berib, to umrining oxirigacha Misrda qoladi.

Misr mazkur yangi mazhabning vatani bo'lgani uchun ham, u yerda bu ta'limotni chuqur ildiz otgani tabiiydir. Bu mazhab, Iroqda ham yoyilgan. Chunki Shofi'iy o'z qarashlarini awaliga Iroqda yoya boshlagandi. Iroq orqali Xuroson va Movarounnahrda ham yoyiladi va shu bilan birga bu o'lkalarda Hanafiy mazhabi, Abbosiylar hokimiyatining rasmiy mazhabi bo'lgani uchun ham yetakchi o'rinda edi. Misrda esa hokimiyat Ayyubiylar qo'liga o'tgach shofi'iy mazhabi yanada jonlanadi, ham xalq, ham davlat tepasida katta mavqega erishadi. Ammo, Mamluklar davrida esa Sulton Zohir Baybars qozilarni to'rt mazhabga ko'ra tayinlash fikrini ilgari suradi va bu filer amalga oshiriladi. Lekin bu holatda ham Shofi'iy mazhabi u yerda boshqa mazhablardan ustun mavqeda edi. Masalan chekka shaharlarga qozi tayinlash vakolati bilan yetim va vaqf mollarini nazorat qilish huquqi faqatgina Shofi'iy mazhabiga oid edi. o'rta asrlarga kelib bu mazhabning ta'sir doirasi torayib borgan.

1517-yili Usmoniy turklar tomonidan Misr bosib olinadi. Keyinchalik Mehmet Ali Poshsho Misrga hokim bo'lgach, hanafiy mazhabidan boshqa mazhablarning rasmiy faoliyatiga chek qo'yadi. Buning natijasida ikki mazhab o'rtasida raqobat boshlanadi.

Uchinchi-to'rtinchi hijriy asrlarda Markaziy Osiyoda Shofi'iy mazhabi Hanafiy mazhabi bilan raqobat qilardi. Uning yirik vakili toshkentlik buyuk olim Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (291-365 hijriy yillar) edi. Xayruddin Zarkaliyning yozishicha, u fiqh, hadis, lug'at va adabiyot bo'yicha o'z davrining mashhur olimlaridan edi. Usulul-fiqh bo'yicha uning asarlari mashhurdir. Toshkentda vafot etib, qabri Hastimom (Hazrati Imom) madrasasi yonida joylashgan.

Hozirgi kunda sud mahkamalarida shaxsiy maqom borasida hanafiylik mazhabi tatbiq etilsada, ko'pchilik misrliklar, ayniqsa, qishloq joylarda o'z diniy urf-odatlarida shofi'iy an'analariga sodiq qolganlar. Falastin va Iordaniyaning aksariyat musulmonlari, Afrika mamlakatlarining ba'zilarida, Shimoliy Kavkaz musulmonlari orasida, Iroq, Hijoz, Pokiston, Hindiston, Eron, Yaman, qisman Suriya va janubiy arab sultonliklarida Shofi'iy mazhabi diniy-huquq tizimiga amal qiluvchilar bor. Indoneziya va Malayziya orollari esa bu mazhab yagona yetakchi mazhabdir. Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1,3 mlrd. musulmon aholining 92.5% ini sunniylar tashkil etib, ular mazhab bo'yicha quyidagi nisbatda bo'linganlar: hanafiyalar - 47%, shofi'iyalar - 27%, molikiylar - 17%, hanbaliylar - 1.5%.

-107-

Shofi'iyning 'usulul-fiqh bo'yicha yozgan asari "ar-Risola"dir. Bu asar Bag'dodda yozilib, so'ngra 814-815-yillarda Misrda qayta yoziladi. Shu tufayli ko'pchilik ulamolar uni o'z asarlarida "Yangi Risola" va "Eski Risola" deb ikki manba sifatida qayd qilganlar. Fahr ur-Roziy Manaqib ash-Shofi'iy kitobida

shunday yozadi: “Imom Shofi’iy kitob ar-Risolani Bag’dodda yozadi, so’ngra Misrga qaytgach uni qaytadan yozadi. Bu ikki kitobning har birida ko‘plab ilmlar bor”. Lekin hozirda ulamolar qo’lida faqat “Yangi Risola” asarigina saqlanib qolgan. Bu asar Shofi’iyning Abdurrahmon ibn Mahdiy (135/198 hijriy yillar)ning maktubiga javoban yozilgan risolasidir. Bu haqida Ali ibn Madaniy shunday yozadi: “Men Muhammad ibn Idris ash-Shofi’iyga Abdurrahmon ibn Mahdiyning maktubiga javob yoz u senga murojaat qilib maktub yozdi va sening javobingga mushtoq, - dedim. Shofi’iy unga javob maktubini yozdi. U Iroqda yozilgan kitob ar-Risola asari edi”.

Shofi’iy bu asarini avvaliga bu nom bilan emas, balki “Kitob”, “Kitobim”, “Kitobimiz” kabi nomlar bilan ataydi. “ar- risola” deb nomlanishining boisi uni Abdurrahmon ibn Mahdiyga irsol qilinganligidir. Chunki o’sha vaqtda kichik hajmli asar “Risola” deyilgan. Bu kitob usulul-fiqh bo’yicha yozilgan ilk asarlardan hisoblanadi, shu bilan birga unda hadis usullari ham bayon qilingan. Fahr ar-Roziy Manaqib ash-Shofi’iy asarida shunday yozadi: “Imom Shofi’iydan oldin odamlar usul ilmi ’ —108 —

masalalari haqida bahslashar, dalillar keltirishar va raddiyalar bildiradilar. Lekin o'sha vaqtda ular uchun dalillarni bir biriga zid yoki ulardan birining ustun ekanligini bilish uchun murojaat qilinadigan umumiy qoidalar yo'q edi. Shofi'iy esa usul ilmini yozib, odamlarga shar'iy dalillarning darajalarini bilishda murojaat qilinadigan umumiy qoidalami ko'rsatib berdi. Shofi'iyning usulul-fiqh ilmidagi o'mi Aristotelning mantiq ilmidagi o'rni kabidir".

Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, usulul-fiqhga oid asami dastlab hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifa (699-767 yy.) yozgan deb ta'kidlanadi va ushbu fikr mazhab asoschisi tomonidan yozilgan "Kitob ar-Ra'y" asari asosida quvvatlanadi. Ibn an-Nadim esa, bu sohada tarqoq qoidalami to'plab, kitob shakliga keltirgan kishi Abu Hanifaning shogirdi imom Abu Yusuf bo'lgan, deb hisoblaydi. Tadqiqotchi Ahmad al-Kurdiyga ko'ra esa, Abu Hanifaning katta shogirdlaridan biri hisoblanmish imom Muhammad ash-Shayboniy ham bu borada asar tasnif qilgan. Tarixchi Hoji Xalifa va tadqiqotchi Ahmad al-Xavliy hamda boshqa ko'plab tadqiqotchilar esa, bu shaxs shofi'iy mazhabi asoschisi Imom Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy (767-820 y.)dir deb ta'kidlaydilar. Ulaming bunday fikr yuritishlari, usulul-fiqhga oid hozirgi davrgacha yetib kelgan dastlabki yagona manba aynan Imom Shofi'iy tomonidan yozilgan "ar-Risola" asari doirasida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Demak Abu Hanifa va uning ikki yirik shogirdlari tomonidan yozilgan usulul-fiqhga oid asarlar bizgacha yetib kelmagan. Lekin ulaming bu ilmga oid qarashlarini keyingi davr hanafiy faqihlarining asarlarida uchratish mumkin. Shuningdek molikiy mazhabi asoschisi Imom Molik ibn Anas (vaf.796 y.) ning "al-Muvatto" asarida ham bu ilm bilan aloqador qoidalami uchratish mumkin. Xolbuki, u Imom Shofi'iydan awal yashagan. Haqiqatga yaqin fikr shuki usulul-fiqh bevosita fiqh ilmi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan, chunki fiqh ilmidagi hukmlar usul qoidalariga ko'ra chiqarilgan. Imom Shofi'iy esa o'zidan awal naql qilinib kelinayotgan usul qoidalarini jamlab ularni tartibga solganligidir. Uning ar-Risola asari esa bizgacha yetib kelgan eng qadimiy asar bo'lganligidan uni birinchilar qatorida zikr qilish mumkin.

—109—

Hatto keyingi davr ulamolari ham bu asarga taqlid qilganlar. Kanadalik islomshunos Vael Hallaq Shofi'iyga usul ilmi asoschisi sifatida nisbat berilishi to'g'ri emasligini, balki usul ilmi Imom Shofi'iy vafotidan so'ng paydo bo'lganini aytib o'tadi. Chunki Shofi'iyga qadar ham usul ilmi garchi og'zaki tarzida bo'lsa-da mavjud edi. Shofi'iyning bu ilmdagi hissasi o'zining davrigacha naql qilinib kelinayotgan usul qoidalarini jamlab, ulami tadqiq qilib, kitob holiga keltirganidir. Uning "ar-Risola" asari buning yorqin dalilidir. Ammo bu asar usul ilmda yozilgan ilk manba bo'lishiga qaramasdan IX asrning ikkinchi yarimida faqihlar tomonidan juda ham kam tilga olinganligi qayd qilinadi. "Ar-

Risola”ni o’rganish natijasi shuni ko’rsatadiki, unda asosan hadislar va juda ham oz fiqhga oid qoidalar keltirilgan. Ular:

1. Hukmlar asosiy manbadan chiqarilishi kerak.
2. Payg’ambar Sunnati qonunchilikning bog’lovchilik qis- mini tashkil qiladi
3. Qur’on va Sunna orasida, xatto biror oyat va hadis orasida biror-bir qarama qarshilik mavjud emas.
4. Bu ikki manba bir-birini to’ldiruvchidir.
5. Aniq, ishonchli va ko’p ma’noga dalolat qilmaydigan manbalardan olingan hukmlar hech qanday bahsga o’rin qoldirmaydi, balki ijti-hod va qiyos yo’li bilan olingan qonunlarga asoslangan hukmlar bahsli bo’lishi mumkin.
6. Va nihoyat, ijti-hod, qiyos va boshqa umumiy tan olingan va bir ovozdan quwatlangan hukmlar dastlabki manbalarga tayanadi.

“Ar-Risola” ni keyingi davr faqihlarining yozgan asarlari bilan solishtiradigan bo’lsak, unda usul ilmiga aloqador asosiy savollar va masalalar ancha kam yoritilganini ko’ramiz. Dastlabki fiqhiy asarlarda shar’iy masalalar asarning 1/4 yoki 1/5 qismini tashkil etgan. Lekin Risolada hadislardan tashqari fiqhga oid dastlabki masalalar va qoidalar keltirilganligi, uni hadis to’plamlaridan ajratib turadi. “Ar-Risola” ni Shofi’iyni- ng shogirdlari tomonidan tezda qabul qilinmaganiga yana bir sabab, asar o’z davrining ikki fiqhiy yo’nalishi ahli ra’y va ahli hadislarga qarata yozilgan. Asarning birinchi to’rt qismi ahli ra’yga qaratilgan bo’lsa, qolgan olti bobida ahli hadis masalalari

muhojama qilinadi. Ammo bu yerda Shofi'iyning biror bir tomonga mansub bo'lmaganini ta'kidlash mumkin. Bir asr davomida asarning faqihlar nazaridan chetda qolishi va IX asrning uchinchi qismida fiqhshunoslikda tub o'zgarishlar bo'lganidan so'ng ya'ni, ijtihoj eshiklarining yopiq deb e'lon qilinishidan keyin, asosiy sunniy mazhablarining to'liq shakllanganida asarga mazhab ulamolari tez-tez murojaat qiladigan bo'ladilar. VIII asr oxirida fiqh juda katta tezlik bilan rivojlanganini ko'rish mumkin. X asrga kelib Usulul-fiqh rivojlanib ketadi. Bu davrda hanafiy olimlarining ko'plab qarashlari ularning usul ilmi asoschilari sifatida ko'rsatilgan bo'lsada, sekin asta bu rolni Shofi'iy olimlari bajaradilar.

Mazhablarda fiqhni, usuldan avval yozilishida hech bir g'ayritabiiylik yo'q. Chunki, hukmlarda asl mavzu fiqhdir. Usul esa bir metod ilmi bo'lib, mantiq kabi, to'g'ri bilan ranglashni ajrata olish xususiyati kabi avaldan mavjud. Ayni mavzuda bir-biriga zid bo'lgan ikki oyatning keyingi nozil bo'lgani, avalgisini nasx (hukmini bekor) qilishi, umumiy hukmning xos hukm bilan chegaralash kabidir.

Shofi'iy tilni yaxshi bilgani uchun ham oyat va hadislardan hukm chiqara olgan. Qur'on tafsirchisi sifatida tanilgan Sahoba Abdulloh ibn Abbos (r.a) Makkadan yetishib chiqqanligi uchun ham nasx qoidalarini yaxshi o'zlashtirgandi. Shofi'iyning usulini mutakallimlarining usuli ham deyiladi. Chunki ularning usulga oid qarashlari tamoman nazariydir. Mazhabdagi ijtihoj ularning metodiga ta'sir etmagan. Masalan: Shofi'iy sukuti ijmoni qabul qilmaydi. Sayfuddin al-Omadiy (vaf.631/1233 y.) esa shofi'iylik mazhabida bo'lgani holda "al-Ahkam" nomli asarida sukuti ijmoni afzal biladi. Bu usul, kalam ilmining mavzusidan istifoda etgani holda, falsafiy va mantiqiy jihatlari mavjud bo'lgani uchun ham "mutakallimlarining metodi" sifatida ta'riflangan. Masalan: Kalam mavzusiga doir yaxshilik bilan vamonlikning aql ila bilinib-bilinmasligi, payg'ambarlarining payg'ambarlikdan oldin ham i'smat, ya'ni ma'sum sifatiga ega bo'lib-bo'lmagani va shunga o'xshash mavzularda bahs vujudlardi,⁴¹

Imom Shofi'iy o'z ijtihojida suyanadigan dalillarni "al-Ilm asarida shunday ifodalaydi: "Ilm bir necha darajalarga

— 111 —

bo'linadi. Birinchisi, Kitob va sobit bo'lgan Sunnadir. Uchinchi Kitob va Sunnada hukm mavjud bo'lmagan masalalarda ijtihojdir. Uchinchi, ba'zi sahobalarining so'zlaridir. Lekin bu sahoba so'zlari orasida ziddiyat bo'lmashgilozim. To'rtinchisi, Sahobalar orasida ixtifoqli qolgan so'zlaridir. Shu ham qiyosdir. Buning asosi ham Kitob va Sunnaga tayanadi. Ilm esa mana shu darajalarining bir orqali qo'lga kiritiladi

Trinim Shofi'iy Qur'onni usulul-fiqhning ilk manbasi ekanligini hech

shak-shubhasiz qabul qiladi. Uning fikrncha bntchi asos bo'lmish Qur'onning zohiriy ma'nosiga ama qilinadi qachonki u ma'noni o'zgartinb yuboravchi boshqa dalil bolmasa. Shuningdek u Kitob va sobit bo'lgan Sunnam avni bir manba sifatida ko'radi. Chunki, Sunna Qur'onning bayonini to'ldirib, qisqa va mujmal ma'nolarni ochib beradi. Shuuga

tafsir qiluvchi holatida bo'la olishi uchun ilmiy jihatdan ham tafsir qilayotgan narsaning darajasida bo'lishi lozim. Ko'pchilik sahobalar hadisga shunday nazar bilan qaraydilar, degan fikrni ilgari suradi. Ammo bu holatda, Shofi'iy Sunnam har jihatda Qur'onga teng deb hisobladi, degani emas. Chunonchi, Qur'on birinchi navbatda, Allohning kalomi, Sunna esa Muhammad (a.s.)ning so'zlari fe'llari va taqrirlaridir. Qur'on ibodat maqsadi bilan o'qilgan sunna bu maqsadda o'qilmaydi. Qur'on tavotir yo'li

bilan sobitdir, S—g barchasi ham — bo'lmaydi; Imom Shofi'iyga ko'ra Sunna Qur'omung shoxi misolidir. Shu mufeyli kuchim Qur'ondan oladi, um quvvatlaydi va itmomiga yetkazadi. Shu jihatdan izohlayotgan bilan izohlanib, biri abarobar bo'lishi lozim. Ammo buning uchun, avvalo Sunna sog'mom bo'mishi kerak. Shu tufayli, ohod va mursal hadislar sahih hadislar singari emas. Boshqa tarafdin esa Shofi'iy, e'tiqod asoslarini aniqlashda Sunnaning Qur'on darajasida emasligim

Imom Shofi'iy mujtahid sahobalarni va Molik ibn Anasga eraashib madinalik faqihlar tomonidan chiqarilgan qarorlarni ijmo deb hisoblagan. Zohiriylar va ayrim hanbaliylar payg'ambar sahobalar. (bonyorlar)ning yakdilliklarini e'tiborga

oladilar. Abu Hanifa har qanday nufuzli mujtahidlar guruhi chiqargan qarorlar ijmo bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Bu Iroq, Suriya, Misr va boshqa joylarda ijmoning mustaqil shakllari paydo bo'lishiga imkoniyat yaratdi.

Imom Shofi'iy hanafiylar tayyanadigan "istehsonni" rad qiladi. "Istehson" lug'atda "bir narsani yaxshi deb hisoblash" ma'nosida ishlatiladi. Usul istelohida esa, "mujtahidning ochiq-ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga, kulliy hukmdan juz'iy hukmga o'tishligi" tushuniladi. Bunday o'tishlikni uning ijtihodi taqozo qilgan.

Mujtahiddan bir masala so'ralsa, uning hukmiga nass¹ kelmagan bo'lsa, mazkur masalaga ikki xil yondashish mumkin. Biri ochiq — ravshan hukmni taqozo qilsa, ikkinchisi maxfiy boshqa hukmni taqozo qiladi. Mujtahid o'z ijtihodi bilan ravshan hukmni qoldirib, maxfiy hukmga o'tishni ma'qul ko'radi. Bunday o'tishni shariatda "istehson" deyiladi.

¹ Usul al-Fiqhda Kitob va Sunna tushuniladi.

Imom Shofi'iy boshchiligidagi ba'zi mujtahidlar shar'iy hukmlar chiqarishda istehsonni dalil qilib olish kishi xohishiga qarab hukm chiqarishdir, deb bunday holatni inkor etgan. Chunki dinda istehsonga ruhsat berilsa, aqlli kishilar ilm ahlisiz ham, istehson o'mida har qaysilari shariat hukmlar berishlari o'z bo'lardi deb hisoblaydilar. Shofi'iyning bu hususdagi fikri quyidagicha: "Allohning, Rasulining va musulmonlar amolasining hukmi o'laroq bu zikr qilganlarim shuni ko'rsatadiki, ;ozi yoki muftiy bo'lishni istagan kishi, faqat asosli dalillar bilan hukm va fatvo berishi joiz. Bu ham bo'lsa Kitob, Sunna yoki ilm egalarining ihtilofsiz o'laroq aytgan fikr yoki bulardan ba'zisiga ;iyos qilish yo'li bilan bo'ladi. Istehson bilan fatvo berilmaydi. U asos emas va u bu ma'nolardan birini ham ifodalamaydi". Shuningdek, uning "Kim istehsonga asosan hukm chiqarsa, u : 'zidan yangi shariat to'qib chiqaribdi", degani rivoyat qilinadi. Imom Shofi'iy o'zining "Usul" nomli risolasida: "Kimki stehsonga asosan hukm chiqarsa, go'yo bir tomonga qarab namoz ;. qib, o'sha tomonni Ka'ba deb istehson qilgandek bo'Madi", deb aytgan. Shofi'iy quyidagi dalilarga tayanib istehsonni rad qiladi:

1. Shar'iy hukmlar yo to'g'ridan to'g'ri nassga (oyat- -adisga) yoki qiyos yo'li orqali nassga tayanadi. Istehson bulardan biriga kirsam, boshqa bir termimga ehtiyoj bo'lmaydi. Aks holda Alloh taoloning ba'zi masalalarda bo'shliq qoldirgani xulosasi kelib chiqadiki, bu esa: "Inson o'zini (bu dunyoda dinu iymonga buyurilmasdan, oxiratda esa qayta tirilib hisob-kitob qilinmasdan) *bekor tashlab qo'yiladi deb o'ylaydimi* (tama qilurmi)" (Qiyomat surasi, 36-oyat) oyatiga ziddir.

2. Qur'onda Alloh taolo va Rasuliga itoat qilishga buyurilgan, havo-nafsga berilishdan qaytarilgan va tushunmovchilik chiqqan vaqtda yana Kitob va Sunnaga qaytarilishi ta'kidlangan (Niso surasi, 59-oyat).

3. Muhammad (a.s.) istehson bilan fatvo bermaganlar va havodan olib gapirmaganlar. Buning dalili ayoliga Sen menga onam kabisan" degan kishining so'roviga fatvo bermagan va "Zihor" oyati (Mujodala surasi, 1 -4 oyatlar) kelgunicha kutganlar.

4. Istehsonning biror bir qoidasi, haq bilan botilni solishtiradigan mezoni yo'q. Erkin qo'yilsa, ayni mavzuda farqli bir necha fatvolar yuzaga kelishi mumkin,

5. Faqat aqlga tayanadigan istehson tushunchasi yuzaga kelsa, Kitob va Sunnadan bilimi bo'lmaganlarning ham bu usulni qo'llashlari joiz bo'lardi.

Ammo bu yerda Imom Shofi'iyning rad etgan istehson shar'iy bir dalilga tayanmasdan, shaxsiy xohish va subyektiv tushunchalarga ko'ra hukm chiqarish deb baholash kerak. Shubhasiz, Hanafiylar ham bu kabi istehsonni qabul qilmaganlar. Balki, ular ham istehson qilish uchun u masalaning shar'iy

bir masala bo'lishi bilan birga, quyidagi dalillardan biriiga tayanishni shart qiladilar:

1. Nassga tayangan istehson. M: Mavjud bo'lmagan narsani sotish taqiqlangani holda (*Abu Dovud, Bay'*,57), pul naqd, mol esa nasiya asosidagi *salam*² kelishuviga izn berilgan (*Abu Dovud, Bay* 70). Bu yerda ikkinchi hodisaga tayanib qiyos tark qilinib, istehson yo'liga o'tilmoqda.

2. Ij moga tayangan istehson. M: Hunarmandgamolbuyurtma berish ma'nosida kelgan istisno kelishuvi ij moga tayanadi. Chunki, asrlar davomida bunga qarshi chiqqan olim bo'lmagan.

3. Zarurat yoki ehtiyojga tayangan istehson. M: Ifloslangan quduqning bir qism suvini chiqarish bilan tozalangan hisoblanishi.

^ 4. Maxfiy qiyosga tayangan istehson. M: Mahalliy qoidaga ko'ra maxsus qayd qilinmaguncha yemi sotish bilan kelishilgan haqlan o'zidan oluvchiga o'tmaydi, Bu masalada vaqfhi sotishga qiyosi ochiq yoki ravshan qiyos, ijaraga qiyosi esa maxfiy qiyosdir. Vaqf istehson yo'li bilan ijaraga qiyos qilinib, irtifoq⁴⁷ (suv ichish, suv olish, o'tish kabi) haqlaming vaqf doirasiga kirish asosi belgilangan.

5. Urfga tayangan istehson. Mahalliy qoidaga ko'ra vaqf abadiy bo'lishi kerak. Bu esa vaqfning faqatgina ko'chinas mulklarda bo'la olish ma'nosini bildiradi. Holbuki, Imom Muhammad ash-Shayboniy kitob va shu kabilarni vaqf qilinishi, urf holiga kelgan narsalami qiyosga zid bo'lish bilan birga vaqfga hos bo'la olishiga hukm qilganlar. Shunga ko'ra naqd pul vaqflariga ham fatvo berilgan.

6. Maslahatga tayangan istehson. Mahalliy qoidaga ko'ra ziroat sherikchiligi, ijara kelishuviga qiyosan taraflardan birining o'hmi da tugaydi. Ammo hosil hanuz yetishmagan holatda yer egasi o'Isa, mehnat egasining manfaatini himoya qilish maqsadida istehson qilinib, ahdlashuv hosil olinmagunga qadar uzaytirilgan hisoblanadi.

; Ko'rmib turibdiki, bir-biriga muxolif har ikki tomon istehson ma nosini chegaralashda bir ittifoqqa kelmaganlar. Istehson bilan hukm chiqarish joiz deganlar "istehson" deganda boshqa ma'noni tushunsalar, joiz emas, deganlar boshqa ma'noni tushunganlar. Agar istehsonning nima ekanligi ma'nosida kelishganlarida edi, ixtilof qilmasdilar. Hanafiylar istehson qilgan masalalaming asosida doimo yuqoridagi dalillardan biri bo'lgan.

Imom Shofi iy ilk mujtahid sahobalar davridanoq og'zaki tarzda naql qilinib kelinayotgan usul qoidalarini jamladi, bir tizimga soldi va o'z nazariyalarini ham bayon qildi.

Imom Shofi iy, avvaliga Makka olimlaridan, so'ngra sunniy mazhab

² Oldindan pul, mol berish haqidagi ahdnoma.

imomlari Molik ibn Anas, shuningdek Abu Hanifaning eng katta shogirdlaridan biri Muhammad ash-Shayboniydan va Ahmad ibn Hanbaldan ilm o'rgandi. U hanafiylarning ra'y- fikr maktabi hamda molikiylarning hadis maktabi olimlarining

Umumiy foydalanishdan kelib chiqadigan haq-huquq; birovning mulkidan toydalamsh huquqi, majburiyat yoki foydalanish

— 115 —

fikrlarini uyg'unlashtirib yangi bir mazhabga asos solishga erishdi. Bu mazhab o'z asoschisining qo'lida ikki davrni boshdan kechirdi. Birinchi davr - Bag'dodda ilk qarashlarini bayon qilgan "Eski Risola" va boshqa bir qator asarlarini shu yerda yozib, eski mazhabga asos soldi. So'ngra Misrga borib, u yerda o'zining aksariyat fikrlarini o'zgartirib, kitoblarini qaytadan yozdi, xususan "Yangi Risola"ni va yangi mazhabga asos soldi. Shofi'iyning eski va yangi mazhabidagi qarashlarining aksariyati bir-biridan tubdan farq qiladi. Hattoki, uning o'zi bu haqida "Kimki mendan bag'dodiy kitoblarimni rivoyat qilsa, unga ijozat bermayman", deydi.

§ 3. Molikiy fiqh maktabi

Molikiy mazhab asoschisi, imom Abu Abdulloh Molik ibn Anas ibn Molik ibn Abi Omir al-Asbahiy hijriy 93-sanada tavallud topgan. U kishining onasi fozila, oqila ayol bo'lgan. Imom Molik onasi ta'siri ostida yoshlik davridanoq ilmga qattiq berilgan.

Uning zehni fasohati kuchli bo'lgan. Qur'oni karimni to'liq yod olgan. Imom Molik hadis ilmining islom olamidagi yetuk olimlaridan bo'lgan. U kishi o'z zamonasining ko'zga ko'ringan ulamolaridan dars olgan va dars bergan. Ixlos va e'tiqod bilan qilingan harakatlar samarasi o'laroq, imom Molik o'z davrining yetuk allomasi bo'lib yetishdi va imom Avzo'iy, imom Shofi'iy, Yahyo ibn Sa'iyd kabi allomalarga ustozlik qildi.

Imom Molik Madinai Munavvaradan boshqa yoqqa chiqishni yoqtirmas edilar. Hatto, xalifa Mansur iltimos qilib, Iroqqa kelishlarini so'raganda ham, rozi bo'lmagan. U kishi Madinai Munawara ichida doimo piyoda yurar, Muhammad (a.s.)ning jussalari ko'milgan shaharda ulov minmayman, der edi.

Imom Molik muhaddis sifatida hadis aytmoqchi bo'lsa, awal tahorat qilar, o'rindiqla yaxshilab joylashib olib, soqollarini tartibga keltirar va viqoru haybat bilan o'tirib hadis aytishni boshlar edi. U Icishidan "Nima uchun bunday qilasiz?" deb so'rasha, "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini ulug'iyashni yaxshi ko'raman", degan javobni berar edi.

— 116 —

Imom Molikmng o sha davrda Islom olamidagi shon- shuhrati o'sha davr hukmdorlarining tinchini buzar, hadiklarini oshirar edi. Buni yaxshi bilgan

chaqimchi va ig'vogarlar turli bo'htonlar to'qishardi. Ular, imom Molik sizlaming mulkingizga norozi, shuning uchun falon masalada undiq dedi, pistonida bundiq dedi, deb u leishining diniy fatvo lari ni siyosatga yo'yishar edilar.

Shunday ig'volar oqibatida, o' shapaytdagi xalifa Mansuming amakisi, Ja'far ibn Sulaymon imom Molikni jazolashga farmon berdi. U kishining kiyimlarini yechib, keyin qamchilab urishdi. Qo'llaridan tortib, kuraklarini chiqarishdi. Bu hodisa zudlik bilan Islom olamiga tarqaldi. Hamma norozi bo'ldi. Afrikadagi diyorlar xalifalikka ochiq qarshi chiqdilar va imom Molik mazhablarini rasman qabul qilganliklarini e'lon qildilar. Vaziyat shu darajaga o'zgardiki, o'sha paytda abbosiylar hukmiga qarshi qurolli kurash olib borayotgan Muhammad Nafsuzakiy boshliq harakat hukmdorlar uchun imom Molik xatari oldida hech narsa bo'lmay qoldi.

Buni yaxshi an'glagan xalifa Mansur voliy Ja'far ibn Sulaymonni ishdan bo'shatdi va poytaxtga olib borib jazoladi.

So'ngra, xalifa Mansur imom Molikni poytaxtga chaqirdi. Haj vaqtiga kelib xalifa Mansur shunchalik izzat ikrom ko'rsatdiki, imom Molik noiloj qolib, xatoni kechirganlarini, Mansur ilmi, fazlli odam ekanini kishilarga aytishga majbur bo'ldi.

Imom Molik hijriy 179-sanada Madinada vafot etdi. Imom Molikning ham hadisda, ham fiqhda peshqadamligi Islom olamida yangi bir mazhabning shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Imom Molik mazhabining asosi u kishi yaratgan "Muvatto'" asanda o'z ifodasini topgan. Bu mazhabning IX-X asrlarda keng miqyosda yoyilishida Andalus musulmon davlati muhim rol o'ynadi. Molikiyya mazhabidagi mo'tabar manbalarning aksari ham mana shu mintaqada yozildi. Ibn Attor (vaf. 1050 y) Muhammad Tulaytuliy (vaf. 992 y) kabi mazhab imomlari bu mazhabni Andalusda qayta isloh qildilar. Natijada bu mazhab G'arbda Andalus mazhabi nomi ostida ham tanilgan.

Imom Molik o'z fiqhiy mazhabiga birinchi manba qilib Qur'om karimni, ikkinchi manba qilib Sunnani olgan. Ba'zi

— 117 —

olimlar, imom Molik fiqhining uchinchi manbasi sahobalarning gapi boigan, degan fikrlarni ham beradilar. Chunki u kishi Muhammad (a.s.) yashagan shaharda bir umr yashagan. Payg'abar tarbiya qilgan insonlarni tarbivasini topgan. Shuning uchun, Molikiyya mazhabida shar'iy masalalarda Madina hayoti va odatlari ko'p narsalarda, ayniqsa, Hanafiylarning fikriy qarashlaridan ham ustun turgan.

Ammo ba'zi ulamolar, Qur'on va Sunnadan so'ng imom Molik mazhabi manbalarida tartibni e'tiborga olmasa ham bo'ladi, deyishadi. Lekin shu narsa

aniqki, imom Molik Madinai Munavvara aholisining amallarini qiyosdan ustun qo'ygan.

Imom Molik o'z fiqhlarida boshqa imomlar ishlatgan barcha uslub va manba'lardan foydalangan. Ba'zi o'ziga xosliklarim yuqorida zikr qilindi. Hozirda Molikiyya mazhabi Afrika qit'asida keng tarqalgan.

§ 4. Hanbaliy fiqh maktabi

Hanbaliya mazhabi hozirda Saudiya Arabistoni yarim- orolida tarqalgan.

Ahli sunna va jamoaning fiqhiy mazhabboshilaridan to'rtinchisi Ahmad ibn Hanbaldir. Tarixchilarning fikricha, faqihning ota-onasi marvlik bo'lib, keyinroq ular Arabiston tomon ko'chganlar.

Imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbalning onasi o'rta Osiyoning Marv shahridan va otasi Saraxsdan bo'lib, 164/780-yil Bag'dod shahrida tug'ilgan va 241/855-yil Bag'dod shahrida hayotdan ko'z yumib, "Bobi Harb" nomli qabristonda dfn etilgan. U Yoshligida yetim qolib, faqirlikda o'sgan, qiynalib o'qigan. U yoshlikdanoq hadis ilmiga qattiq qiziqqan. Bu esa, o'z navbatida, ilm talab etish uchun ko'p safar qilishga chorlagan. Imom Ahmad, Abu Hanifaning bosh shogirdlaridan bo'lgan Abu Yusufdan dars olgan. Keyinchalik, Bag'dodda katta muhaddis Hushayt ibn Bashir al-Vositiyda to'rt yil muntazam o'qib, u kishidan uch mingta hadis yozib olgan. Ilm talabida Yaman, Kufa, Basra, Madina, Makka va boshqa joylarga safar qilgan. Makkai Mukarramada imom Shofi'iydan dars olgan.

Imom Shofi'iy Bag'dodga kelganda ikki faqih orasidagi aloqa yana ham mustahkamlangan. Imom Ahmad u kishirfen ko proq, ta'lim olishga harakat qilgan. Imom Shofi'iy Misrga ko'chib ketayotganida imom Ahmad ham u kishi bilan birga ketmoqchi bo'ldi, ammo sharoit to'g'ri kelmadi.

Ahmad ibn Hanbal hadis ihnida juda yetuk ketgan alloma bo'lgan. Ko'pchilik ulamolar u kishining hadisdagi "Musnad" kitobini eng mo'tabar oltita hadis kitobi jumlasiga kiritadilar. Imom Ahmad ibn Hanbalning shogirdiari va muxlislari u kishining islomdagi huquqiy qarashlari bilan faxr qilishar edi. Tarixchi Tabariy o'zining "Ixtiloful ulamo" kitobida Ahmad ibn Hanbalni "muhaddis" deb ataganda, Ibn Hanbalning muxlislari u kishining uyiga bostirib kirganlar va "Nimaga Ibn Hanbalni faqih demading?" deb janjal qilishgan. Oxiri, Tabariyni mirshablar zo'rg'a ajratib olishgan.

Imom Ahmadning davri siyosiy va aqidaviy ixtiloflar kuchaygan bir davr bo'lgan. Ayniqsa, o'sha paytda Mo'taziliy mazhabi tarafdorlari hukumatga yaqin bo'lib, ko'p aqidaviy buzg'unchiliklami amalga oshirdilar. Ulaming o'sha davrdagi boshliqlaridan biri Ibn Abu Dovud xalifa Ma'munga odamlami majbur qilib "Qur'on maxluq" deb aytirishga urindi. Uning maslahati bilan xalifa Ma'mun voliylarga ahli sunna va jamoa ulamolarini haqoratlab xat yozdi, Il] ami hukumat qarorgohlariga olib kelib "Qur'on maxluq" degan gapni aytirishni, uni bajarmaganlami esa, jazolashni amr qildi.

Musulmonlar ulkan fitnaga uchradilar. Islom aqidasibuzilishi xavfi tug'ildi. Bag'dodda imom Ahmad ibn Hanbal boshchiligida ulamolar bunga qattiq qarshilik lco'rsata boshladilar. Ular ilmiy munozaralarda mu'taziliylami sharmanda qilishar edilar. Buni sezgan xalifa Ma'mrn Bag'dodning yettita atoqli olimini o'z huzuriga yuborislini amr qildi. Ulami majbur qilib, e'tiroflarini oldi va hammaga e'lon qildi. Shu bilan imom Ahmadning qanotini kesmoqchi va shavkatini sindirmoqchi bo'ldi. Imom Ahmad bu fitnaga qarshi salobatli tog'dek mahkam turdilar. U kishi fitnachilami xalq orasida hujjat va dalillar bilan sharmanda qilib, dovdiratib qo'ydi.

Akasi Ma'munning vasiyatiga amal qilgan xalifa Mo'tasim ham fitna yo'lini davom ettirdi. Imom Ahmadni ikki yildan ortiq, aniqrog'i, yigirma sakkiz oy qamoqda ushlab qiynashdi. Imom Ahmadning e'tiroflari ko'pchilikning huzurida bo'lishini xohlashar edi. Shuning uchun, odamlarni to'plab, xalifa Mo'tasim o'zi chiqar va imom Ahmadni so'roqqa tutar edi. Gap bilan yenga olmasliklariga ko'zlari yetgandan so'ng kaltaklashga o'tdilar. Har safar gap-so'z foyda bermagandan so'ng Imomni hushidan ketib qolguncha darra bilan urishar, keyin esa, ko'tarib, qamoqqa olib ketishar, bu hoi ertasiga yana yangidan boshlanar edi.

Bir kuni kaltak zarbidan hushidan ketayozgan hnomning qulog'iga fitnaboshi Ibn Abu Dovud: "Ey, Ahmad, qulog'imga, Qur'on maxluq, deb qo'yg'in, seni xalifaning qo'lidan qutqarib olaman", dedi. Shunda imom Ahmad boshlarini zo'rg'a ko'tarib: "Ey, Ibn Abu Dovud, qulog'imga Qur'on Allohning kalomi maxluq emas, deb qo'yg'in, seni Allohning azobidan qutqarib olaman", dedi.

Bu voqea xalifaning tavba qilishi, fitnaboshi Ibn Abu Dovud va uning sherigi Bashrul Musraysiyning boshi olinishi va imom Ahmadning e'zozlanishi bilan tugadi. Shunday qilib, bu Imom musulmonlarning katta fitnalardan qutulib qolishlariga sababchi bo'lgan.

Imom Ahmad ibn Hanbal mazhabi tayanadigan manbalar. U ki shining mazhabi Qur'on va Sunnani asosiy manba qilib oldi. So'ngra ijmo va sahobalarning kuchli gaplari o'rin oldi. Qiyosni boshqa iloj qolmagandagina ishlatish kerak, deydi.

Imom Ahmad ibn Hanbal mazhabi masalalarni tor olishi hammaga ma'lum. U kishi ko'p masalalarda taqvo asosida hukm chiqargani uchun shunday bo'lib ko'rinadi. Masalan, it yalagan idishni tozalash uchun imom Shofi'iy yetti marta yuvish kerak, deydi. Hadisi sharifda ham shu adad kelgan. Ammo Ahmad Ibn Hanbal sakkiz marta yuvish kerak, degan.

Ahmad ibn Hanbal birinchi marta fiqh ilmini ham rivoyat va ham diroyat (ya'ni ra'y va qiyos) asosida o'rganish uchun Abu Hanifaning shogirdi va suhbatdoshi, Abbosiylar davlatining kozi al-quzoti imom Abu Yusufdan o'rgandi. Lekin undan ko'proq fiqhni emas, balki hadislarni o'rganishga qiziqardi. Uning o'zi

— 120 —

"Birinchi bo'lib men hadis yozib olgan kishi Abu Yusuf edi", degan. U Xulafoi Roshidun fiqhi, sahobalar va tobein fiqhi, shuningdek Shofi'iy fiqhiy uslubini o'zlashtirdi.

U kalam ilmini yoqtirmagan va bu o'rinda boshqa mazhablarga qarama-qarshi turgan. Ahmad ibn Hanbal o'ziga xos fiqhiy qarashlarga ega edi va ular bilan boshqa mazhab tarafdorlaridan ajralib turardi. Uning aqidasi bmoan

lymon qalb bilan tasdiqlash, til bilan iqrор etish va badan a'zolari bilan amal qilishdir. Amal iymonning juz'i bo'lgani uchun u ko'payib ozayadi. Gunohi kabiralarga qo'l urgan kishi haqida mo'tazilaga qarshi turib, bunday gunoh qilganni mo'min emas, degan fikrim rad qiladi.

Ahmad ibn Hanbal o'ziga xos uslubga tayangan holda Hanbaliy mazhabiga asos soldi va uni rivojlantirmashda Makkada Ibn Abbos orqali kurtaklari o'sa boshlagan ilk Huquqiy maktabdan foydalandi. U o'z mazhabida Qur'on, Sunna, sahobalar so'zlan va ijmosiga asosiy e'tibomi qaratib, zarurat sezmagan hollarda qiyosdan foydalanmagan. Barcha hadislar hatto xaban vohid va sahobalar qavlini qiyosdan ustun qo'ygan. Uning Musnad kitobi 40 mingdan ko'proq hadisni o'z ichiga olgan.

Uning izdoshlaridan biri Ibn Taymiya (1263 -1328 yy) ijmoni inkor etib, qiyosga katta e'tibor qaratdi. Hanbaliy mazhabi ra'y va qiyosga katta e'tibor qaratmagani sababli bu mazhab tarqalgan mintaqalarda barcha huquqiy muammolarni odamlarning manfaatini nazarda tutgan holda yechib bera olmadi va boshqa mazhablar kabi keng tarqalmadi. o'n to'rtinchi milodiy asrga kelib inqirozga uchradi.

XVIII asr o'rtalarida Muhammad ibn Abdm-Vahhob (1703-1787 yy) ushbu mazhabning qattiqqoMlik prinsiplaridan foydalanib, Vahhobiylik-ekstremistik oqimiga asos soldi. Hamda Saudiya Arabistonida hukmron diniy yo'nalish darajasiga olib chiqdi.

7- BOB. HANAFIY FIQH MAKTABI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Tayanch iboralar: *Abu Hanifa, Zufar ibn Huzayl, hanafiy mazhab, Hammad ibn Sulaymon, Musnad, erkinlik prinsipi, Abu Yusuf, hiylai shar'iy, Muhammad ash-Shayboniy, zohir ar-rivova.*

§ I. Hanafiy fiqh maktabi va uning rivojlanish bosqichlari

“Hanafiylik” (“hanafiyya”) soʻzi ilmiy adabiyotda bir necha maʼnoda qoʻllaniladi. U xususiy termin sifatida imom Abu Hanifa fiqh (islom huquqshunosligi) fani doirasida asos solgan maktabni (“Mazhab Abu Hanifa”) bildiradi. Keng maʼnoda esa “hanafiylik” - diniy ilmlar majmui ichidagi alohida yoʻnali.shtn anglatadi. VIII asrning oxiri - IX asming boshida Iroqda yangi vujudga kelgan fiqh fani ichida alohida maktab sifatida shakllangan hanafiyya mazkur davrdan soʻng paydo boʻlib, rivojlangan barcha diniy ilmlar sohasida oʻz taʼlimotlarini ishlab chiqdi. oʻtgan asrlar mobaynida hanafiy ulamolar fiqh bilan bir qatorda tafsir, hadis, kalom, mantiq, filologiya, axloq, tasavvuf va boshqa ilmlar sohalarida boy, xilma-xil adabiyot yaratdilar.

Hanafiyyaning Markaziy Osiyo maʼnaviyati uchun ahamiyati bagʻoyat kattadir. Chunki mazkur mazhabning tadrijiy rivojlanishi bir necha asrlar mobaynida islom dunyosining rnrli mintaqalarida davom etdi. Abu Hanifa mazhabi Iroqning markaziy shaharlarida - asosan Kufa va Bagʻdodda paydo boʻlib shaldlandi. Ilk davming oʻzidayoq ikki markaz - Iroq va Xurosoimning mazhab ichida yetakchi oʻrin egallaganligi yaqqol koʻzga tashlanadi. Somoniylar (261-389/875-999 yy.) davrida yangi intellektual muhit - Movarounnahming mavqei mustahkamlana boradi. V-VI/XI-XII asrlarda Yaqin Sharq mintaqalarida hanafiyya markazlarining turli sabablarga

— 133 —

koʻra ahamiyatining pasayishi, hatto baʼzi yerlarda butunlay yoʻqolib ketilishi kuzatiladi. Xuddi shu davrda Qoraxoniylar (389-607/999-1211 yy.), Xorazmshohlar-Anushteginiylar (470-628/1077-1231 yy.) qoʻllari ostidagi Movarounnahr markaziy shaharlaridagi hanafiyya maktablari barq urib rivojlandi. Ulardagi intellektual hayot toʻlaqonli, har tomonlamali edi: turli mahallalarda yangi masalalar boʻyicha fatvolar berilar, faqihlar majlislarida ixtilofli masalalar bahs etilar, imlo darslarida yoʻnalishlar boʻyicha maʼlum yechimlar va fatvolar tartibga solinar, koʻp sonli mualliflar fiqhning metodologik va amaliy sohalarida koʻp kitoblar yozar edilar. Eng muhimi - hanafiyya mazhabi normalari uzoq vaqt davomida mahalliy material - Markaziy Osiyo madaniyati asosida Movarounnahr ulamolari tomonidan ishlab chiqildi. Buning natijasida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatlari yutuqlari, anʼanalari, huquqiy tasawurlari islom madaniyati tarkibiga kirdi. Bu esa, oʻz navbatida,

mazkur sivilizasiya namoyandalari tarafidan islomni "o'z dini" sifatida qabul qilishiga yo'l ochib berdi.

Islom dunyosi g'arbida hanafiyya maktablari inqiroz va parokandalikka yuz tutgan bir paytda kuchga mingan Movarounnahr maktabi ushbu mazhab taqdirini o'z qo'liga oldi. Movarounnahr ulamolari XII asrdan boshlab Iroq (Bag'dod, Mo'sul), Suriya (Dimashq, Halab), Misr (Qohira), Rum (Kichik Osiyo - Karomon, Konya, Sinop), Oltin o'rda (Xojitarxon, Qrim), Hindiston maktablariga yangidan asos soldilar. Keyinchalik mazkur mamlakatlar ulamolari tomonidan, ayniqsa hanafiylik Usmoniylar imperatorligi (680-1342/1281-1924 yy.) davrida rasmiy mazhab maqomiga erishgan kezda, movarounnahrlik olimlar klassiklar, ikkilanmasdan qabul qilinadigan avtoritetlar sifatida e'zozlana boshladilar.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixiy-diniy tajribaning qadimiyligi, xilma-xilligi, madaniyatlamining serqirraligi, mintaqaviy jihatlarning boyligi bilan ajralib turadi, Islomning bu hududga kirib kelishi bilan yuqorida zikr etilgan regional o'zigaxosliklarmuayyanetnikguruhlar, aholi tabaqalari, nisbatan ajralgan diniy jamoalar orasida islomiy firqa va firqachalar ta'limotining tarqalishi va barqarorlashishida o'z aksini topdi. Hanafiyya Markaziy Osiyoda hukmron mazhabga aylana boshlagach, bu islomiy guruhlariga, birinchi navbatda, ulaming ta'limotlarivaamaliyotlaridamujassamlashibulgiuganaholidiniy ishonchlari va udumlariga o'z munosabatini shakllantirdi. Uning mohiyati ikki qismdan iborat edi. Birinchidan, o'z prinsiplarini izchil, sobitqadam hayotga tadbiq etish. Ikkinchidan, muxolif guruhlar bilan muloqot olib borish, ular ko'targan masalalarga javob izlash, asosli jihatlarni o'zlashtirib olish. Tarixning turli davrlarida Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan ko'plab islomiy guruhlar - karromiylar, shofi'iyilar, qaromita, mu'tazila, so'fiylar (yassaviyya, kubraviyya, naqshbandiyya, ishqiyiyya) va boshqalar hanafiyya tarkibiga singdirilib yuborildi. Buning oqibatida hanafiylik o'zida qariyb butun Markaziy Osiyo diniy mafkurasi va amaliyotini mujassamlashtira boshladi.

Hanafiylik Markaziy Osiyo siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy hayotidagi ulkan siljishlarga hamohang tarzda o'zgarib turdi. Yangi davr nafasi uning islohchilik harakatining paydo bo'lishiga olib keldi. Musoxon Dahbidiy (v. 1190/1776 y.), Niyozquli (v. 1236/1820-21 y.) mamlakat rivojlanishiga kafolat beruvchi ma'naviyat formalarini izladilar. Ammo tashqi kuchlarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi o'z qonunlarini¹³⁴ rivojlayotgan islohchilik jarayonlarini boshqa oqimga burib yubordi. Keyingi voqealar, ayniqsa stalinizm siyosati, hanafiylik ijtimoiy tuzilmalarining tugatilishiga, nazariy ilmiy namoyondalarining bartaraf etilishiga olib keldi. Natijada ma'naviyatning ajralmas bir qismi hisoblangan diniy hayot xalq islomi - urf-odat, udumlar

bilan chegaralanib qoldi. Bu bo'shliq uzoq vaqt turli ijtimoiy-vulgar ta'limotlar bilan . 3 ldirilib kelindi. Markaziy Osiyoda yangidan vujudga kelgan mamlakatlax rivojlanishning mustaqil, sivilizacion yo'lini :anlagan holatda mazkur bo'shliq masalasi yana bir bor aktual —uammoga aylandi. Mintaqa ma'naviy-ruhoniyl hayoti tarixida XEX asr oxiri — XX asrlarda yuz bergan uzilish hanafiylikning :oy merosi va an'analarining yangi avlod tarafidan imutilishiga -'b keldi. Oqibatda islom dunyosining turli chekkalarida shakllangan, milliy madaniyatlar, ular asosida vujudga kelgan -afkura, qadriyatlar tizimlari, muayyan davlatlar manfaatlari

bilan chambarchas bog'liq bo'lgan nazariy islomiy ta'limotlar bu bo'shliqni to'ldirishga urinmoqdalar. Shunday bir sharoitda Markaziy Osiyoning ko'p asrlik tarixi, madaniyati, qadriyatlari, taqdiri bilan chambarchas bog'langan hanafiylilikni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Abu Hanifa o'quvchilari va hanafiyya mazhabining vujudga kelishi. Imomning bevosita o'quvchilarmi ikki guruhga taqsim etsa bo'ladi. Uning ilk shogirdlari ichidan Abu-l-huzayl Zufar ibn al-huzayl al-Anbariy al-Basriy (110-158/728-775) mashhurdir. Ammo biroz keyingi davrda yashagan shogirdlari mazhab tarixida muhim rol o'ynadi. Ularning faoliyatlari VIII asr oxiri - IX asr boshi - islom dini tarixida mazhablar paydo bo'lib, shakllanish davriga to'g'ri keladi. Ulardan ikki olim (ular mazhab ichida "ikki imom" nomi bilan ataladilar) - Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohim ibn Habib al-Kufiy (113-182/731-798 yy.) va Abu Abd Alloh Muhammad ibn al-hasan ibn Farqad ash-Shayboniylarning (132-189/749-805 yy.) mazhabni shakllantirishdagi xizmatlari beqiyos bo'ldi. Ular mazhab doirasidagi masalalami tartibga keltirdilar. Yangi mazhabga uning eponimi - Abu Hanifa ismi berildi. Abu Yusuf birinchi mukammal mazhab vakili sifatida uch Abbosiy xalifalar - al-Mahdi (158-169/775-785 yy.), al-Hodi (169-170/785-786 yy.), Horan ar-Rashid (170-193/786-809 yy.) davrida *qozi al-quzot* (bosh qozi) mansabini egallab turdi. Bu esa, o'z navbatida, hanafiyyaning "rasmiy mazhab" tarzida aholi orasida keng yoyilishiga xizmat qildi.

Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad hanafiy fiqhning birinchi kitoblarini tasnif etishdi. Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" kitobi xalifalik iqtisodiy hayotini yoritishda katta xizmat qildi. Uning yana "Kitob al-maxorij fi-l-hiyal", "Kitob ar-radd alo siyar al-Avzo'iy", "Ixtilof Abi Hanifa va-Ibn Abi Laylo", Adab al-qozi", "Kitob al-latoif", "al-Amoli" asarlari mavjud. Abu Yusuf (uning o'g'li Yusuf naqlida) Abu Hanifa rivoyat etgan 70 ming hadisdan 40 mingini bir xil nomli "Kitob al-osor" kitobiga jamladi. Bu esa Abu Hanifaning an'anachi olim sifatida obro sini mustahkamladi. Imom Muhammad mazhab amaliyoti (*furu' al-fiqh*) masalalarini olti kitobga jamladi. Ular - "al-Mabsut" ("Asl" - mazhab o'zagi deb ham ataladi), "al-Jomi' al

— 136 —

kabir", "al-Jomi' as-sag'ir", "Kitob as-siyar al-kabir", "Kitob sa-siyar as-sag'ir", "az-Ziyodot". Mazkur olti kitobda zikr etilgan masalalar "zohir ar-rivoya masalalari" ("aniq rivoyat etilgan masalalar") deb ataladi. Imom Muliammadning bundan boshqa kitoblarida eslatilgan masalalar "g'ayr zohir ar-rivoya masalalari" ("nodir rivoyat etilgan kitoblardagi masalalar") deb nomlanadi. Ikki guruh kitoblar safiga - "al-ayloniyyot", "al-horuniyyot" va boshqalar kiradi. Ular keyinchalik Abu Sulaymon Muso ibn Sulaymon al-Juzjoni (v. 200/815 yildan so'ng), Abu Ya'lo al-Mu'allo ibn Mansur ar-Roziy (v.

211/826 y.), Abu Abdulloh Muhammad ibn Sammo'a ibn Ubaydulloh al-Kufiy (130233/747-847 yy.) va boshqalar tomonidan "Kitob an-navodir" nomli kitoblarga jamladilar. Barcha kitoblarda Abu Hanifa bilan birgalikda bu ikki imomning ham fikrlari keltiriladi. Agar uch imomning hukmlarida ixtilof bo'lsa, Abu Hanifa va uning bir o'quvchisi qo'llagan yechim ustivor hisoblangan. Agar Abu Hanifa bir yoqda, ikki imom - boshqa yoqda bo'lgan taqdirda, fatvo chiqaruvchi faqih xohlagan yechimni tanlashi mumkin. Bu esa "ikki imom"ning Abu Hanifadan so'ng mazhabda muhim mavqe tutishini yana bir karra tasdiqlaydi.

Abu Hanifaning kalom ilmi sohasidagi fikrlarini uning o'quvchilari - Abu Muti' al-hakam ibn Abdulloh ibn Salama al-Balxiy (v. 199/814 y.) "al-Fiqh al-absat" (yoki "al-Fiqh al-akbar"), Abu Muqotil hafs ibn Salm as-Samarqandiy "Kitob al-olim va-l-mutaallim», noma'lum muallif "al-Fiqh al-akbar" (ikki xil tahriri mavjud) asarlarida jamlashdi. Lekin imomning fikrlarini bu asarlarda berish bilan bir qatorda, ular o'z davrlari, muhitlarida hukm surgan fikrlarni ham ifoda etdilar. Bu hanafiyya ta'limotining juda katta tezlik bilan tadrijiy o'zgarishlarga uclirab borganligini ko'rsatadi. Tez orada - IX-X asrlardan boshlab Abu Hanifa "mutlaq mujtahid" (mazhab asoslarini belgilay, o'zgartira oladigan faqih), uning bevosita o'quvchilari - "mujtahid fi- 1-mazhab" (mazhab doirasida hukmlar chiqaruvchi faqihlar), qolganlar esa - "muqallidlar" (barcha masalalarda mazhab ulug'lariga ergashuvchi faqihlar) deb hisoblana boshladilar. Bu esa hanafiyya mazhabining to'liq shakllanib ulgurganligidan dalolat beradi.

XIV-XIX asrlar hanafiy olimlari klassik daw hanafiy faqihlarini turli tabaqa, gunihlarga boiganlar. Barcha hanafiylar shartli ravishda asosiy 2 guruhga ajratiladilar: 1) al-mutaqaddimun (“qadimgilar”); 2) al-muta’axxirun (“keyingilar”). “Qadimgilar” o’z navbatida 2 guruhni tashkil etadilar: 1) as-Salaf. Unga Abu Hanifadan to Muhammad ibn al-hasan ash-Shayboniygacha bo’lgan Imomning shogirdlari kiradilar. 2) al-Halaf. Unga ash-Shayboniydan Shams al-Aimma al-halvo’iy al-Buxoriygacha (al-halvo’iy, vafoti 448 yoki 449/1056-1058 yil) bo’lgan faqihlar kiradi.

“Keyingilar” guruhi Shams al-Aimma al-halvo’iydan tortib to hofiz ad-din al-Kabir al-Buxoriyni (v. 693/1293-94 y.) o’z ichiga oladi. “Keyingilar” ba’zi hollarda 1) “akobirlar” (buyuklar) va 2) “muqallidlar” (ergashuvchilar) guruhlariga bo’linishlari mumkin.

“Akobirlar” guruhiga ko’pincha muj’tahidlar va mo’tabar matnlar mualliflari qo’shiladi. Hanafiyya ta’limoti bo’yicha, Ijtihad eshiklari IX asrda batamom yopilgani yo’q, balki aksinchau uzoq vaqt davom etdi. Ba’zi olimlar fikricha (masalan, Abdulhay al-Laknaviy), hanafiyya doirasida so’nggi mujtahid hofiz ad-din Abu-l-Barakot Abdulloh ibn Ahmad an-Nasafiydir (v. 710/1310-yil yoki keyinroq). Hanafiylar odatda mujtahidlarni 3 guruhga bo’ladilar: 1) al-mujtahid al-mutlaq (Abu Hanifa); 2) al-mujtahid fi-l-mazhab (Abu Hanifaning bevosita shogirdlari); 3) al-mujtahid fi-l-masoil yoki fi-l-fatovo. Bu davmi 600-hijriy yilgacha (1203-04 milodiy yil) davom etdi, deb hisoblovchilar aksanyatni tashkil etadi. Ular safiga Abu Yusufva Muhammad ash-Shaybomynmg Bag’doddagi o’quvchilari, ulaming shogirdlari - Muhammad ibn Sammo’a al-Kufiy, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy (v. 248/862 y), Xuroson, Balx olimlarini qo’shadilar. Ular orasida Movarounnahr ulamolari alohida o’rin tutadilar. Ilk mujtahidlar ro’yhatini Abu hafs al-Kabir al-Buxoriy boshlab beradi. Keyingi davrda “al-voqi’ot” va “an-navozil” darajasidagi fatvolar chiqargan mujtahidlar orasida ko’plab Movarounnahr faqihlari eslatiladi. Ular ko’plab fatvolar to’plamlariga yigllgan

Bufatvolarhanafiylikmasalalarimg3-darajasini-“al-voqe’ot”ni
tashkil etadi. Aynan Movarounnahrda klassik davming (II-VII/

— 138 —

VIII-XIII asrlar) ikkinchi qismida hanafiylik asosiy masalalari - yangi savollarni fatvo chiqarish yo’li bilan yechish, ularni ta’lif qilish orqali tartibga solish, yangi darslik, darsliklar tuzish orqali hal qilganligining guvohi bo’lamiz. Bunga tayanch matnlar misolida ishonch hosil qilishimiz mumkin. Ma’lumki, hanafiy ulamolarning ba’zilari 3 mo’qabar matn - “Viqoyat ar-rivoya fi sharh al-hidoya”, “Muxtasar al-Quduriy”, “Kanz ad-daqiq”, ba’zalari esa 4 matn - “Viqoya”, “Kanz”, “Muxtor” va “Majma’ al-bahrayn” ga suyanadilar. “Viqoya” va “Kanz”ning muallifiari Movarounnahr vakillari - Toj ash-shari’a Mahmud ibn

Sadr ash-shari'a Alimad al-Mahbubiy al-Buxoriy va hofiz ad-din an-Nasafiydirlar. "Al-Muxtor" muallifi Majd ad-din Abdulloh ibn Mahmud al-Mavsiliy - Jamoliddin al-Hasiriy al-Buxoriy shogirdi va Movarounnahr an'analari bevosita davomchisi, "Majma' al-bahrayn" muallifi Muzaffar ad-din Ahmad ibn Ali as-So'otiy esa Zahiriddin al-Buxoriy an'analari davomchisidir. Demak, Ahmad ibn Muhammad al-Quduriyning (v. 428/1037 y. Bag'dodda) "al-Muxtasar" asaridan tashqari barcha hanafiylikdagi mo'tabar matnlar Movarounnahr bilan bog'liq. Shu mintaqaga hanafiylik kirib borishi, rivojlanishi, mazhab doirasidagi ahamiyatini o'rganish diqqatga molikdir.

o'rta osiyolik faqihlarning har biri o'z ilmiy uslubi va yashagan davri sharoitiga qarab islom huquqi, ayniqsa, hanafiy mazhab rivoji yo'lida unutilmas xizmatlar qilib, o'zlaridan barhayot asarlar qoldirganlar. Ular orasida imom Marg'inoniy yozgan qimmatli huquqiy kodeks "al-Hidoya" o'z ixchamligi, mukammalligi, hanafiy mazhabini boshqa sunniylik mazhablari bilan qiyosiy uslubda o'rganib, har tomonlama yoritganligi uchun o'ziga xos katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

§ 2. Abu Hanifaning hayoti, shaxsiyati va ilmiy faoliyati

Hanafiy mazhabining asoschisi, abu hanifa kunyasi, imomi a'zam laqabi bilan shuhrat qozongan Nu'mon ibn Sobit 80/699 yili Kufa shahrida tug'ilib, 150/767 yili o'sha yerda vafot etgan. Abu Hanifa savdo ishi bilan shug'ullanuvchi bir oilada tug'ilib,

— 139 —

ipak matolar savdosi bilan hayot kechirardi, ayni holda ilmu ma'rifat va islom ta'limotini o'zlashtirishga qiziqardi.

U yashagan muhit - Iroq o'lkasi qadim zamonlardan beri turli-tuman millatlar hamda firqalar yashash makoni va madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelgan edi. U yerda suryoniyalar, yunon falsafasi va sharq hikmatini targ'ib qiluvchilar son-sanoqsiz bo'lib, siyosat va aqoid bo'yicha turli yo'nalishlar mavjud edi. Shialar, xorijiylar, mo'taziliylar, shuningdek, bir qator tobeinlar va mujtahidlar u yerda to'plangan edi. Mashhur sahobiy Ibn Mas'udning shogirdlari bo'lmish bir guruh faqihlar, fiqh ilmi rivoji bo'yicha sezilarli ta'sir ko'rsatib turardi.

Awallari Abu Hanifa ko'proq tijorat ishlari bilan shug'ullanib, bo'sh vaqtida olimlar bilan uchrashib turardi, turli guruhlar bilan munozara va mujodala olib borib, ulaming tafakkuri hamda dunyoqarashlaridan bahramand bo'lardi.

Kufa olimlari uni ilm o'rganishga targ'ib va tashviq qilib kelgan bo'lsalar ham, o'sha davming mashhur olimlaridan biri Sha'biy bilan uchrashuvi uning hayotida burilish nuqtasi bo'ldi. Imomning o'zi aytishicha, Sha'biy uning ilm o'rganish maqsadida olimlar majlislariga ko'proq qatnashishini tavsiya qilib

«Men senda bir uygʻoqlik va harakatni koʻraman», degan edi⁴⁹. Uning oʻgiti Abu Hanifaga chuqur taʼsir oʻtkazib, uni ilmu maʼrifat tomonga yoʻllaydi, bozorga kamroq qatnashsa ham, ota kasbi boʻlmish tijoratni butunlay tark etmaydi.

U birinchi marta kalom ilmiga qiziqib, turli firqalar, ayniqsa, moʻtazila va xavorij vakillari bilan bahslashib turadi. Hatto moʻtazila bilan munozara oʻtkazish maqsadida bir yilgacha Basra shahrida qolib ketadi. U barcha fanlar, ayniqsa, kalom, hadis, tafsir, fiqh, hikmat eshiklarini qoqib oʻtib, har birida, kalom va hadis ilmlarida oʻz isteʼdodini sinab koʻradi, oxiri borib butunlay fiqh ilmiga beriladi. Uning oʻzi bu haqda shunday degan edi:

«oʻzimga murojaat qilib shunday dedim: bizlar biladigan narsalardan hech biri bizlardan oldin oʻtgan paygʻambar sahobalari va tobeinlardan chetda qolmagan edi. Ular bizlarga

⁴³ Vahbiy Sulaymon Gʻovjiy. Abu Hanifa anNuʼmon imom alfiqaho.

Damashq: Dorulqalam, 1987. S.49.

— 140 —

nisbatan iqtidorliroq, bilimiirroq va haqiqatni anglab olishda saloliiyatliroq edilar. Lekin shunday boʻlsa ham, ular nafaqat munozara va mujodalaga berilib bu sohaga chuqur kirib bormadilar, balki jiddiy suratda boshqalarni ham bu yoʻldan qaytardilai. Men ular shariat va fiqh ilmiga berilib, bu sohada oʻzlaridan qoldirgan soʻzlarning guvohi boʻldim. Ular har doim oʻtirishib ushbu mavzu (fiqh va shariat) boʻyicha fikr yuritib, uni odamlarga oʻrgatib, ularni ushbu fanlarni oʻzlashtirish uchun targʻib etib fatvo berib, fatvo soʻrardilar. Shu yoʻsinda birinchi bosqich oʻtib, odamlar ular izidan bordilar. Men ularga tegishli boʻlgan aytib oʻtilgan narsalarni bilib olganimdan keyin, munozara va mujodala vakalom ilmi bilan chuqur shugʻullanishni tark etib, faqat uni aniqlab olish bilan kifoyalandim va salaflar (oʻtganlar) yoʻlidan borib, ilmu maʼrifat ahli bilan suhbatdosh boʻlishga yuz tutdim. Men anglab oldimki, kalom yoʻlidan borib, uning mavzulari boʻyicha munozara qiluvchilarda oʻtganlarning siymosi va solih kishilarning uslubini koʻrish mumkin etnas ekan, ularning koʻngillari qattiq va yuraklari qotgan boʻlib, Qurʼon, Sunna va salafi solihiga qarshi turishdan ham qaytmas ekanlar* ularda taqvo va parhezgorlik koʻrinmas ekan»⁵⁰.

Abu Hanifa turli siyosiy va ijtimoiy hodisalarga toʻla boʻlgan ikki davr — Umaviylar va Abbosiylar davrlarida yashab, ilmiy faoliyat olib bordi va davlat hokimiyati birinchi suloladan ikkinchi sulolaga oʻtishining guvohi boʻldi. U siyosiy tomondan alaviylar (Ali avlodlari va ularning homiylari) tarafdori boʻlgan boʻlsa ham, tinchlik va xalq manfaatini koʻzlab hech qachon qurol koʻtarib kurashlarda qatnashmadi.

Hokimiyat Abbosiylarga oʻtishi jarayonida Kufa shahri ushbu tarixiy harakatning markazi boʻlib, natijada Abulabbos Saffohga bayʼat qilish (ovoz

berishning qadimiy uslubi) amalga oshirildi va Umaviylar hokimiyatdan chetlashtirildi.

Mazkur harakatda Abu Hanifa to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmagan bo'lsa ham, Ali oilasi va uning tarafdorlariga nisbatan o'zining ezgu niyatlarini yashirmasdi. o'sha davrda yuz berib --.radigan siyosiy hodisalar Abu Hanifa hayotiga qanday ta'sir ko'rsatgani haqida bir qator rivoyatlar mavjud. Ulardan biri Ibn Xallikon tomonidan quyidagidek rivoyat qilingan:

: Abu Zahra. «Abu Hanifa». B.23.

— 141 —

Umaviylar vakili Marvon ibn Muhannad tomonidan Iroq volisi qilib tayinlangan Yazid ibn Hubayra Abu Hanifaga murojaat qilib, unga qozilik vazifasini taklif qiladi, lekin Abu Hanifa uni qabul qilishdan bosh tortgani uchun uni o'n kungacha har kuni o'n qamchi urib jazolaydi, lekin imom bu taklifni qabul qilmagani sababli uni qo'yib yuboradi.

Abu Zahra ham buni tasdiqlaydi, lekin Muhammad Xuzariybekning fikricha, qamchi bilan urish haddan ortiq haqorat hisoblanadi. Amirlikdan keyin eng sharaflı vazifa bo'Mmish faqatgina qozilik vazifasini qabul qilmaganligi uchungina bir kishini bunday jazolash tushunarli emas. Chunki Kufada juda ko'p faqihlar mavjud bo'lib, ulardan har birini qozilik vazifasini bajarish uchun tanlab olish mumkin edi.

So.'ngra Xuzariybek ushbu hodisaga siyosiy tus berib bunday deydi: «Menimcha, Abu Hanifaga qozilik vazifasini taklif etishdan maqsad davlatga nisbatan uning ishonchi va do'stligini aniqlab olish edi. Aftidan, olimlar o'sha davrda ularga yoqmagan davlatda ishlashni yoqtirmas edilar va uni o'sha davlatni qo'llab-quwatlash deb bilardilar. Shuning uchun Hubayra Abu Hanifaning taklif etilgan vazifani bajarishdan bosh tortganini Bani Umayyaga (Umaviylarga) qarshilik deb uni jazolagan»³. Biz ham ushbu fikrga qo'shilamiz. Nafaqat Umaviylar davrida, balki Abbosiylar davrida ham imomning savalanishi uchun asosiy sabab siyosiy omil bo'lgan edi.

Abu Hanifa Hubayra qamog'idan chiqqandan keyin Makkaga qarab yo'l oladi (130/748) va hokimiyat Abbosiylar sulolasiga o'tgunga qadar Kufaga qaytib kelmaydi.

U yangi hokimiyat — Abbosiylar hokimiyatini rozilik bilan kutib olib, ularga bay "at qiladi. Lekin uning Ali oilasi va avlodlariga bo'lgan ishonch va hurmati har doim Mansuming

— Abbosiylar xalifasining tashvishiga sabab bo'lardi. Zohiran Mansur Imomning mavqeini ko'tarib, hunnat ko'rsatib, unga katta hadyalar taqdim etib turardi, lekin Imom ulami yumshoqlik va tadbir bilan qaytarib yuhprardi,

³ M.Xuzariybek, «Tarixuttashri'ilislomiy. B.168169.

chunki u hech kimdan hech qachon hadya qabul qilmas edi.

Abbosiylar xalifalari siyosiy tomondan Abu Hanifani yoqtirmasalar ham, uning mazhabi va huquqiy ta'limotlariga katta zarurat sezardilar. Chunki ahli hadis mazhablariga nisbatan hanafiy mazhabi o'zining keng dunyoqarashi, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni yechishda yaratgan katta va keng qamrovli imkoniyatlari bilan, davlat uchun juda ko'p qulayliklar yaratib, zamon talablariga, voqelikka muvofiq ravishda javob berishga qodir edi. Lekin shunga qaramasdan, uning muxoliflari ham saroyda, ham boshqa joylarda mavjud bo'lib, o'zini kelganda unga qarshi ig'vo tarqatar edilar.

Abu Hanifa salohiyatli shogird tayyorlashi bilan birga, ilmiy asarlar ham yozib qoldirgandir. Abu Zahra «Imom Abu Hanifa unga nisbat berilgan bir necha kichik risolalardan boshqa kitob yozmagan», deb ta'kidlab, ular jumlasidan «al-Fiqhul-akbar», «alOlim valmutaallim», «Qadariyaga raddiya» risolasi va Usmon alBustiyga yozgan risolasini eslatib olib, ularning hammasi kalam ilmiga tegishli asarlar bo'lgan va uning o'zi fiqh bo'yicha hech qanday kitob yozmagan, balki uning fiqhi va huquqiy nazarivalari shogirdlari tomonidan to'planib tarqatilgan», deydi.

§ 3, Abu Hanifaning ustozlari, zamondoshlari va shogirdlari

Abu Hanifa fiqh ilmini kimdan o'rgangani haqida «Men ilm va fiqh koni bo'lgan joyda yashab, uning ahli bilan uchrashib, faqihlar jumlasidan birini tanlab oldim», degan edi⁴.

Abu Zahra uning ushbu qisqa so'zidan bunday xulosa chiqargan: Imomning hikmatli so'zidan quyidagi uch narsani anglab olish mumkin:

Ilm o'rganuvchi, ilmiy muhitda yashab, uning hidini sezib tursa, olimlar bilan uchrashib o'z davrining turli fikriy yo'nalishlari bilan muloqotda bolsa, shuningdek, fan sohasida unga fanning nozik tomonlarini ko'rsatib, daqiq muammolarini ochib beradigan ustozlardan birining mulozimati tursa, o'shanda yorug'likda harakat qiladigan bo'lib, to'g'ri yoldan adashmaydi.

Abu Hanifa mazkur bosqichlarning barchasini bosib o'tib, ayniqsa, ilmu ma'rifat, falsafa va aqid markazi bo'lmish Kufa shahrining olimlari bilan fiqhiy masalalar bo'yicha Qur'on, Sunna, ijmo va qiyos asosida muzokaralar olib borardi, nass mavjud bo'lmaganda, muammolarni qiyos orqali isbotlashga harakat qilardi. Kufa olimlaridan Ibrohim Naxa'iy va undan so'ng uning shogirdlari Qur'on va Sunnadagi hukmlarning sabab va illatlar (sabablar)ni istixroj qilib (chiqarib) olgandan keyin, o'sha hukmlarni mazkur illatlar (sabablar) mavjud bo'lgan hodisalarga tatbiq etib qiyos metodidan foydalanardilar. Abu Hanifa yoshlik va talabalik vaqtida ana shunday ilmiy muhitda nafas olib vashadi, Kufa shayxi va Iroqning buyuk faqihi darajasiga

⁴ Abu Zahra. «Abu Hanifa». B.25. «Bag'dod tarixi» rivoyati asosida.

ko'tarilgunga qadar shu yo'ldan bordi.

Muhammad Xuzariybek «Tarixuttashri'ilislomiy» kitobida yozishicha, Abu Hanifa fiqh ilmini o'zlashtirish maqsadida o'sha davming yirik olimi bo'lmish Hammod ibn Sulaymonni tanlab olib, uning dars halqasiga kirdi⁵.

Hammod ibn Sulaymon Ash'ariy (v 120/739) fiqh ilmini Ibrohim Naxa'iy va undan keyin ashSha'biydan olgan edi, ulaming ikkalasi ham Ali ibn Abu Tolib va Ibn Mas'ud fiqhini Shurayh, Alqama, Masmq ibn Ajda' orqali o'zlashtirgan edilar. Abu Zahraning ta'kidlashicha, Abu Hanifaning qarashlari fiqhiy masalalar bo'yicha Ibrohim Naxa'iyga yaqinroq edi, chunki u Iroq maktabining yirik namoyandasi hisoblanardi, Sha'biy esa ra'y va qiyos maktabini yoqtirmagani sababli, ahli hadis tarafdorlariga yaqinroq edi. -

Hindistonlik mashhur faqih Dehlaviy «Hujjatullohilbolig'a» nomli asarida ta'kidlashicha, Ibrohim Naxa'iyning so'zlari hanafiy mazhabi uchun yo'llanma hisoblanadi. Agar Ibrohim va uning yo'ldoshlari so'zlari hanafiy mazhabi bilan taqqoslansa, juda learn joylarda ular orasida farq ko'zga tashlanadi, Abu Hanifa shunday o'rinlarda ham Kufa faqihlari yo'nalishidan chiqmaydi.

Uning ustozlarining barchasi ham ahli sunna val jamoadan bo'i may, ayrimlari turli guruhlar va firqalarga mansub edi. Ulammg hammasi ham fiqh bo'yicha ra'y va qiyosni qo'llab- quvvatlamasdi. Masalan, bir qator tobeinlar faqat hadis va osorga tayanib, ushbu chegaradan chiqmasdilar.

Shuningdek, Abu Hanifa ja'fariy shialar imomlari bo'l- mish Muhammad Boqir va uning o'g'li Imom Ja'far Sodiq (oltinchi imom)dan hadis rivoyat qilib, fiqh ilmi bo'yicha ular bilan munozaralar olib borgan. Imom Boqir Abu Hanifaning ustozlaridan biri edi. Hazrat Sodiq uning qiyos va istehson uslubiga muxolif bo'lsa ham, bunday muxolafat ilmiy munozarali mohiyatga ega edi⁶.

Kufa shahrida Abu Hanifa bilan zamondosh bo'lib yashagan mashhur faqihlardan quyidagilar manbalarda zikr etilgan:

1. Sufyon ibn Said as-Savriy (716-779) hadis ilmining mashhur imomlaridan biri va atoqli mujtahid edi.

2. Sharik ibn Abdullo an-Naxa'iy, 95/714-yil Buxoroda tug'ilib, 177/783 yil Kufada vafot etgan. U fiqh ilmi bo'yicha katta salohiyat va ilmiy maqomga ega bo'lib, Kufa shahrida kamoli adolat bilan qozilik vazifasini bajargan.

3. Muhammad ibn Abdurrahmon ibn Abi Laylo (t. 74/693) ra'y tarafdorlaridan bo'lib, faqih va muftiy bo'lgani uchun Kufa qozisi qilib tayinlandi. Umaviylar va Abbosiylar davrida 33/655- yil ushbu vazifani bajarib kelib, 148/766-yilda hayotdan ko'z yumdi. So'fyon Savriy: «Bizning faqihlarimiz ibn Abi Laylo va Ibn Shibramadurlar», degan edi.

⁵ M.Xuzariybek. «Tarixuttashri'ilislomiy». B.168.

Mazkur faqihlar va Abu Hanifa oralarida kelishmovchilik mavjud edi. Xuzariy fikricha, Sufyon Savriy bilan uning orasida kelishmovchilikning sababi ahli ra'y va ahli hadis orasidagi tushunmovchilikdan kelib chiqqan bo'lsa, Ibn Abi Laylo bilan muxolafatning sababi shundan iborat ediki, Abu Hanifadan fatvo so'ralganda, u bergan fatvolar ba'zan shahar qozisi Ibn Abi Laylo chiqargan qarorlarga zid edi va u bundan norozi bo'lardi. Ammo Sharik bilan kelishmovchilikning sababi zamondoshlar orasidagi raqobatdan boshqa narsa emas edi. Biz bu o'rinda Ibn Abi Laylo bilan Abu Hanifa orasida yuz bergan ixtiloflardan bir misolni keltiramiz.

Bir kuni Kufa qozisi Ibn Abi Laylo mahkama (sud)dan uyiga qaytayotganda yo'lda bir majnun xotin bir erkakni «Yo ibnaz- zoniya'n!», ya'ni (Ey ikki zinokoming o'g'li) deb so'kishining guvohi bo'lib, g'azablanganidan sud idorasiga qaytib kelib o'sha xotinni olib kelishga buyruq beradi. Xotin keishi bilan darrov uni to'xtatib ikki marta qazf (birovni zinoga nisbat berib so'kish) haddini (jazosini) unga tatbiq qildiradi.

Bu mojarodan xabar topgan Abu Hanifa bunday degan edi: Ushbu masala bo'yicha qozi quyidagi xatolarga yo'l qo'ygan:

1. U had jazosini masjidda tatbiq qilgan. Vaholanki hadlar masjidda urilmaydi.

2. Ayolni turg'izib urishni buyurgan. Vaholanki ayollarga had o'tirg'izib uriladi.

3. Qozi otasi uchun bit had, onasi uchun yana bir had urdirgan. Agar kishi bir guruh kishiga tuhmat qilsa ham unga bir kishiga tuhmat jazosi tatbiq etiladi.

4. U ikki hadni birdaniga tatbiq qilgan. Vaholanki agar ikki had uriladigan bo'lsa birinchi jazo alamidan qutilganidan keyin ikkinchi jazo tatbiq etiladi.

5. Majnun ayolga had jazosi urilmaydi.

6. Da'vogarbo'lmishota-ona uchun had urdirgan. Vaholanki, ular kelib, da'vo qo'zg'atishmagan edi.

Qozi uning ushbu so'zlarini eshitib, Kufa hokimiga borib Abu Hanifa nomli bir yigit menga xusumat ko'rsatib, chiqargan hukmlarimga qarshi fatvo chiqaradi, meni yomonlab xatolarga nisbat berib yuradi, deb shikoyat qiladi. Hokim Abu Hanifaga odam yuborib, uni (bir muddat) fatvo berishdan man etadi⁵⁵.

Abu Hanifaning islom huquqi va kalom ilmida tutgan o'mi va ulaming rivojiga qo'shgan ulushini undan qolgan asarlar va shogirdlari tomonidan to'planib tarqatilgan ta'limotidan bilib olish mumkin. Abu Hanifa qalamiga mansub asarlar soni 17 ta deyilgan. Ular jumlasiga «al-Fiqhul-Akbar», al-Musnad (Abu Yusuf rivoyati asosida), Usmon Bustiy⁵⁶ga yozgan risolasi va boshqalar kiradi.

Abu Hanifa o'z davrida ilm-ma'rifat quyoshi bo'ldi, yuzlab odamlar uning ilmu fazli nuridan bahramand bo'lib keldilar. Uning dars halqasi har doim tolibi ilmlar va muxlislar bilan gavjum bo'lib, uzoq joylardan uning bahs-munozaralarini eshitib foydalanish uchun kelardilar. Mualliflarning yozishlaricha, uning shogirdlari orasida turli saviyali kishilar mavjud bo'lib, ayrimlari

⁵⁵ Ibn Xallikon. «Vafayotula'yon». J.4. B.34.

⁵⁶ Vahbiy Sulaymon /ovjiy. «Abu Hanifa». B.290.

— 146 —

o'z layoqat va oliy iste'dodi yordamida yiiksak ilmiy darajalarga yetib borgan bo'lsalar, ayrimlari bunday o'rinni egallab olishga muvaffaq bo'lmagan edilar.

Aytib o'tganimizdek, hindistonlik mashhur olim Mahmud Hasanxon Tunkiy o'zining 60 jildlik qomusiy asari «Majmaul- musannifin»da Abu Hanifa shogirdlari soni 882 ta deb ko'rsatgan⁷.

Shayx Ahmad Makkiy Xorazmiyning aytishicha, Imomi A'zamdin rivoyat qilgan buyuk olimlar soni 730 taga yetib borardi. Ularning hammasi islom jamoalarining mashoyixi sifatida turli mintaqalarda undan rivoyat qilib, u haqida so'zlab berardilar.

Abu Hanifa shogirdlarining ko'pchiligi Movarounnahr, Xuroson, ayniqsa, Balx, Hirot va Bust⁵dan bo'lib, hanafiy mazhabini tarqatish yo'lida tinimsiz faoliyat olib borganlar. Ularning ko'pchiligi Abu Hanifaning dars halqasida bir muddat o'tirib, uning yo'l-yo'riqlari va fiqhiy uslubini o'zlashtirgandan keyin o'z vatanlariga qaytib ketardilar, ulardan ayrimlari har doim Abu Hanifa bilan birga bo'lib, uning doimiy shogirdlari hisoblanardilar.

Asad ibn Furot rivoyatiga ko'ra, bunday shogirdlar soni 40 taga yetib borgan bo'lsa, Ibn al-Bazzoziy «Manoqib»ida ularning soni 36 ta erkak deb ko'rsatilgan. Ulardan 28 kishi qozilik vakolatiga, 6 tasi fatvo berish salohiyatiga ega edi, ikkitasi, ya'ni Abu Yusuf va Zufar ham qozilik vazifasini bajarish, ham fatvo berish bo'yicha iqtidorli olim edi.

Ibn al-Bazzoziy fikriga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, Abu Hanifaning mashhur shogirdi Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy ushbu mazhabning iqtidorli nazariyotchisi sifatida o'zining ko'p qirrali shaxsiyati va xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turardi. U o'zining mashhur asarlarida Abu Hanifa ta'limotini yoritib, talqin etib kelgan va katta iqtidorli olim sifatida qozilik ishlarini bajarish salohiyatiga ega bo'lgan.

Muhammad ibn Hasan ibn Voqid Abu Abdullo ash-Shayboniy Abu Hanifaning ikkinchi atoqli va istedadli shogirdi edi. U 749yil Iroqning «Vosit» nomli joyida tug'ilib, Kufa va Bag'dod shaharlarida voyaga yetdi. U 18

⁷ Vahbiy Sulaymon. «Abu Hanifa». B.169.

yoshigacha Abu Hanifaning dars halqasida qatnashdi va ustozining yoshligida hayotdan ko'z yumdi. Undan keyin Abu Yusufdan ilm o'rgandi va kamol darajasiga yetdi. Abu Yusuf hayotlik ehog'ida u shunday yuksak darajaga ko'tarildiki, barchaning murojaat markaziga aylandi, undan keyin oralarida yuzaga kelgan raqobat munosabatlarining sovuqlashishiga sabab bo'ldi.

Imom Shofi'iy Bag'dod shahriga qilgan safarlarida u yerda istiqomat qilib, Iroq maktabi (ra'y va qiyos maktabi)ni Shayboniydan o'zlashtirdi va o'zining ikkinchi mazhabiga asos solishda undan keng ko'lamda foydalandi. U bunday degan edi: «Men undan (Shayboniydan) tuyaning og'irligiga teng keladigan narsalami (ma'limiotlami) yozib olganman. U bo'hnaganda men o'zlashtirgan ilmni qo'lga kiritma olmas edim»⁸. Shunday qilib, Shayboniy shofi'iy mazhabining shakllanib, molikiy va hanbaliy mazhablariga nisbatan ko'proq ra'y va qiyosdan foydalanishi uchun zamin yaratib bergan. Xatib Bag'dodiy rivoyatiga ko'ra, bir kuni Horun ar-Rashid uning dars halqasiga kirib kelganda, undan boshqa barcha kishilar o'z o'rinlaridan turdilar. Hoiun undan nega turmaganini so'raganda, u: «Olimlar qatoridan chiqib avomlar qatorida turishni yoqtirmadim», deb javob beradi. Bu esa uning o'ziga ishonganidan va yuksak izzati nafs egasi ekanligidan dalolat beradi.

AshShayboniy 805-yil Horun bilan Ray shahrida bo'lganida, arab tilining buyuk olimi Abu Hasan Ali ibn Hamza Kiso'iy bilan bir kunda vafot etadi⁹. o'shanda Horun ular haqida «Bugun Ray shahrida arab tili va fiqh ilmi (ya'ni har ikkala fanning ikkita yirik vakili) dafn etildi», degan edi. U Horun davrida Ruqqa shahrida qozilik vazifasini bajargan edi.

Uning muhim asarlari «alUsul» yoki «Zohirurrivoya» deb atalgan oltita fiqhiy asar bo'lib, quyidagilardan iborat: «al-Mab- sut», «az-Ziyodot», «al-Jomi' as-sag'iy», «al-Jomi' al-kabiy», «as-Siyar as-sag'iy», «as-Siyar al-kabiyi»¹⁰. Kotib Chalabiyning ta'kidlashicha, ularning «Zohirurrivoya» deb atalishining sababi shundan iboratki, ular ashShayboniydan ishonchli kishilar orqah rivoyat qilingan.

«Zohirur-rivoya» kitoblarini al-Hokimush-shahid (v. 334/946) «al-Kofiy» nomli kitobida to'pladi, undan keyin Muhammad ibn Abu Sahl Saraxsiy (v. 490/1098) o'zining «al- Mabsut» nomli kitobida «alKofiy»ni sharhladi.

Al-Mabsut. Bu asar Imom Muhammadning birinchi yozgan kitobi bo'lib, uni «al-Asl», ya'ni asosiy kitob deb بُيُوت ataganlar. Muallit bu kitobni o'z suhbatdoshlari va shogirdlariga imlo qilgani uchun uning xilma-xil nusxalari mavjud bo'lib, ulardan eng mashhuri Abu Sulaymon al-Jo'zjoniyniing «Mabsut»i hisoblanadi. Ushbu asar yuzasidan boshqa bir qator olimlar singari,

⁸ Shalabiy. Mavsuatulhazoratilislomiya. J.8. B.200.

⁹ Ibn anNadim. AlFehrist. B.287.

¹⁰ Abdulhay Laknaviy. Muqaddima // AlHidoya. B.5.

buxorolik Shayxulislom Xoharzoda va shamsulaimma Halvoniy ham sbarh yozgan. Aytishlaricha, imom Shofi 'iy ushbu kitobni yodlab olgan ekan. Bir rivoyatga ko'ra, bir nasroniy kishi uni o'qib, islomni qabul qilgandan keyin: «Kichik Muhammadingizning kitobi bu bo'Isa, buyuk Muhammadingizning kitobi qanday bo'ladi», degan ekan. Ushbu asar katta ahamiyatga ega bo'lgani sababli, uning uslubidan foydalanib, o'rta osiyolik ko'p faqihlar ushbu nom bilan ko'p jildli kitoblar yozganlar, jumladan, Saraxsiy va Xoharzodaning «Mabsut»lari har biri 15 jilddan iborat.

«Al-Jomi' as-sag'iyr va al-Jomi' al-kabiyr» Muhammad Shayboniyning muhim asarlaridan biri bo'lib, 1532 masalani o z ichiga oladi. Abu Yusuf Abu Hanifadan rivoyat qilgan barcha masalalar unga kiritilgan. Uning «Al-Jomi' as-sag'iyr» kitobi Burhoniddin Marg'inoniyning «al-Hidoya» kitobi uchun poydevor bo'lgan «Bidoyatul-mubtadiy»ning muhim qismim tashkil etgan. Ushbu asar, shuningdek, «al-Jomi' al- kabiyr» asari ham bir necha o'rta osiyolik olimlar tomonidan shaihlangan. Jumladan Abullays Samarqandiy, Shamsulaimma Halvoniy, Abu Zayd Dabusiyy, Faxrul-islom Bazdaviy, Abulyusr Muhammad Bazdaviy, Sadri Shahid, Alouddin Samarqandiy, Qozixon, Marg'inoniy va boshqalar ushbu asarga sharhlar yozganlar. Rivoyatga ko'ra imom Abu Yusuf buyuk maqomiga qaramasdan, «al-Jomi' as-sag'iyr»ni ham safar, ham istiqomat chogiarida o'zidan uzoqlashtirmasdi. Shayx Akmaluddinining ta'kidlashicha, hnom Abu Yusuf «al-Jomi' al-kabiyr»da Abu Hanifadan olgan muhim rivoyatlar va dalillami to'plagan.

— 149 —

As-Siyar al-kabiyr va as-Siyar as-sag'iyr. Abu Hanifaning huquqiy nazariyalari asosida ashShayboniy yozgan «asSiyar al- kabiyr» islom huquqida xalqaro huquq bo'yicha yozilgan eng muhim asardir, Umrining oxirida Farg'onada yashab, 1097-yili shu yerda vafot etgan Shamsulaimma asSaraxsiy tomonidan . ushbu kitobga yozilgan katta sharh bizgacha yetib kelgan. Majid Xadduriyning yozishicha, ushbu kitobning tarjimasi Yevropada 1825-yilda nashr etilgach, olmoniyalik mashhur sharqshunos ohm Jozef Hamer Fun Purgstal (Hammer Fun Purgstall)¹¹ muallifhi «islom Grosiysi»¹² deb atadi.

Ushbu sharh 1917-yil Haydarobodda (Hindiston) 4 jildda nashr qilingan. Fransiyalik olim Hans Gruse ham Shayboniyni «islom Grosiysi» deb atab, 1955-yil «Shayboniy» nomidagi xalqaro huquq anjumanini ta'sis etdi¹³.

AshShayboniy ovrupalik olimlar tomonidan bunday qadrlanib e zozlanishi juda o 'rinli, chunki Grosiydan sakkiz yarim asr muqaddam xalqaro

¹¹ Hammer Fun Purgstall (1774-1856) germaniyalik mashhur sharqshunos, yozuvchi va diplomat. Olmoniyada birinchi bo'lib islomga tegishli asarlar bo'yicha tadqiqot olib borishni boshlab, 50 yil davomida ko'p asarlar yozdi va boshqa sharqshimoslar uchun yo'l ochib berdi. U arab, fors va turk tillari mutaxassisi edi.

¹² Grosiy - Ovrupaliklar tomonidan xalqaro huquq asoschisi sifatida qabul qilingan olim.
¹³ Sayyid Xalil Xaliliyon. Islomiy xalqaro huquq. 1368 h.y. B.62.

huquqning barcha sohalari (xususiy va umumiy xalqaro huquq)ga tegishli juda ko'p masalalar, ayniqsa, urushlar va tinchlik shartnomalarini tuzishda rioya qilinishi zarur bo'lgan me'yorlar, asirlar bilan qanday muomala qilish haqidagi normalami birinchi bo'lib ashShayboniy o'z kitobida mufassal yoritib bergan.

Muhammad ibn Hasan ashShayboniy o'zidan qoldirgan qimmatli asarlari bilan, shuningdek, uning ilmu fazhdan bahia topgan iste dodli shogirdlari bilan hanafiy mazhabini takomillashtirish, tarqatish yo'lida unutilmas xizmatlar qildi, ra'y va qiyos maktabining rivojiga katta hissa qo'shdi.

Un ing mashhur suhbatdoshlari va shogirdlari orasida mashhur muhaddis va faqih Abu Sulaymon alJo'zjoniy, buyuk faqih va birinchi bo'lib hanafiy mazhabi ta'limotini Movarounnahrqa olib

kelib tarqatgan va rivojlantirgan olim Abu Hafs alKabiyr Ahmad ibn Hafs alBuxoriy bor. Shuningdek, Muso ibn Nasir arRoziy, Muhammad ibn Simoa, Muallo ibn Mansur, Ibrohim ibn Rustam, Hishom ibn Ubaydullo, Iso ibn Ibon, Muhammad ibn Muqotil, Shaddod ibn Hukaym va boshqalar uning shogirdiari sifatida keng ko'lamli ilmiy faoliyat olib borganlar.

§ 5. Abu Hanifaning fiqhiy qarashlari

Kashf azzunun muallifi Xoji Xalifa hanafiy mazhabii haqida quyidagi fikmi bildirgan edi: «to'rt mazhab ichida birinchi o'rinda turadigan va haqiqatga eng yaqin bo'lgani, Abu Hanifa asos solgan mazhabdir. Negaki, ushbu mazhab boshqalaridan ittifoqqa asoslangani, ustuvorligi, oliy iste'dod mahsuli bo'lganligi, nazariyalarning kuchliligi va ilmulahkom sohasida to'g'ri fikrlar yuritilganligi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi¹⁴.

Abu Hanifa shariat hukmlarini istinbot va istixroj qilish (chiqarib olish)da o'ziga xos bir ilmiy uslubga asos solgan. Ahmad shalabiy «mavsuatul-hazoratil-islomiya» (islom tamadduni qomusi) nomli asarida yozishicha, Abu Hanifa shariatning asosiy manbalaridan hukm chiqarish bo'yicha o'z uslubini quyidagicha izohlab bergan¹⁵:

«Birinchidan, Qur'onga murojaat qilaman. Kerakli hukmni undan topolmasam, Payg'ambar Sunnalariga va u zotdan ishonarli roviylar orqali rivoyat qilingan sahih asarlarga (hadislarga) murojaat etaman. Ulardan ham topolmasam, sahobalar so'zlarini nazardan o'tkazib istaganimni olaman, istamaganimni tark etaman. So'ngra sahobalar so'zlaridan boshqalarning so'zlariga o'taman. Ibrohim Naxa'iy, Sha'biy, Hasan Basriy va Ibn Siyrin kabi mujtahidlarga kelganda, men ham ular kabi ijtihod qilaman».

Sahl ibn Muzohim: «Abu Hanifa har doim eng ishonchli rivoyatlarga tayangan, odamlarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga uringan. U qiyosga asoslanib ish olib borardi, qiyos noqulay bo'lganda istehson (qiyosi xafiy)ga o'tardi, u orqali ham muammo o'z yechimini topmasa, xalq orasida amalda bo'lgan urf-odatga murojaat qilardi», - deb ta'kidlagan edi¹⁶.

Xatib Bag'dodiyning aytishicha, o'rta tashlangan masala bo'yicha sahoba va tobeinlardan sahih hadis mavjud bo'lsa, Abu Hanifa uning izidan borardi, bo'lmaganda qiyos qilib, qiyos uslubini yaxshi ishlatgan.

Tadqiqotchilar bildirgan fikrlarni birlashtirib, Abu Hanifaning istinbot (hukm chiqarish) uslubini quyidagi asoslarga tayangan deb fikr bildirish mumkin:

1. Qur'oni karim. Islom dinining barcha ahkomi, axloqu odobning barcha

¹⁴ Kashfuzzimun. J.2. B.202.

¹⁵ Mavsuatolhazoratilislomiya. J.8. B.196.

¹⁶ O'sha asar, o'sha bet.

me'yorlarini o'z ichiga qamrab olgan ilohiy manba sifatida o'zining umumiy ko'rsatmalari va yo'llanmalari bilan boshqa manbalarning poydevorini tashkil etgani uchun Abu Hanifaning fiqhiy uslubida birinchi va asosiy o'rinda turadi.

2. Sunna. Payg'ambarning so'zlari, amallari, taqrirlari (tasdiqlari)dan iborat bo'lib, Qur'on oyatlarini izohlovchi, umumiy hukmlarini xoslashtiruvchi, mutlaqlarini muqayyad qiluvchi, noaniq bo'lgan iboralar va hukmlarini aniqlab beruvchi manba sifatida ikkinchi o'rinda turadi.

3. Sahobiylar so'zlari. Ular Payg'ambarga oyatlar nozil bo'lishining guvohlari sifatida oyatlarning sababi nuzuli (nima uchun kelganligi) va hadislarning sha'ni vurudi (nima uchun aytilganligi)ni yaxshi tushungan holda, Payg'ambar ilmini o'zidan keyingi nasi uchun yetkazuvchilar edilar. Shuning uchun Abu Hanifa sahobalar so'zlari vaular bajargan amallarga fiqh ilmi bo'yicha katta e'tibor beradi, lekin Abu Hanifa nuqtai nazaridan tobeinlarning so'zlari bunday yuksak darajada turmaydi.

4. Qiyos uslubi. Biron bir muammoning yechimi Qur'on, Sunna yoki sahobiy qavlidan topilmasa, Abu Hanifa ra'y va qiyosga asoslanib amal qilardi. Qiyos, «Usul ash-Shoshiy» hoshiyasida berilgan ta'rifga binoan, «hukmi ma'lum bo'lmagan masalani, hukmi aniqlangan masala bilan solishtirib, oralarida mushtarak illat (sabab) mavjud bo'lsa, aniqlangan hukmni hukmi noaniq masalaga ko'chirishdir».

Abu Zahra yozishicha, Abu Hanifa qiyos orqali hukmlarni istinbot qilish bo'yicha eng oliy darajaga yetib borgan edi. Birinchidan, u illatni qidirardi, unga erishgandan keyin uni tekshirib, faraz qilishga o'tardi va hali yuz bermagan hodisalami taxmin qilib, aniqlangan sababni unga tatbiq etishga urinardi. Bunday fiqh esa «alfiqhuttaqdiriy», ya'ni taxminiy huquqshunoslik deb atalardi. Bunda sodir bo'lmagan hodisalar taxmin qilinib, hukmi aniqlanardi va bu ish topilgan illatlarni sinovdan o'tkazish maqsadida amalga oshirilardi¹⁷.

Ta'kidlash kerakki, «fiqhi taqdiriy» bo'yicha hanafiy mazhabi vakillari, ayniqsa, o'rta osiyolik olimlar katta yutuqlarga erishganlar. Ular yozgan fatvo va boshqa fiqhiy asarlar buning guvohidir.

5. Istehson. Bu - qiyosi jaliy (qiyosi zohir — ochiq qiyos) doirasidan chiqib, unga qarshi bo'lgan hukmni tanlab olishdir.

Muhammad ibn Hasan aytishicha: «Abu Hanifa o'z suhbatdoshlari bilan qiyoslashga o'tganda, ular unga qo'shilishib munozara qilardilar. Ammo istehsonga o'taman deganda, istehson¹⁵⁰da masalalar ko'p bo'lgani uchun hech kim unga qo'shilmasdi, so'ngra hammalari to'xtab unga bo'ysunardilar. U Kufa olimlari fiqhini yaxshi bilardi»¹⁸.

⁵⁸ Tarixulmazohibilislomiya. B.372.

¹⁸ Ahmad Shalabiy. Mavsuatolhazoratilislomiya. J.8. B.196.

6. Ijmo. Ushbu soʻz ittifoq va kelishuv maʼnosida boʻlib, fiqhiy atama sifatida bir davr mujtahidlarining bir muayyan hukm boʻyicha kelishuvidan iboratdir. Olimlar ittifoqi asosida ijmo hujjat, yaʼni shariat hukmlarini belgilash uchun qatʼiy dalil hisoblansa ham, sahobalar davridan keyin boʻlgan ijmo boʻyicha ixtilof bor. Masalan, Ahmad ibn Hanbal sahobalar davridan keyin boʻlib oʻtgan ijmoqa muxolafat bildiradi.

Hanafiy mazhabida ijmoning barcha turlaridan, ayniqsa, «zarurat» tamoyilidan keng koʻlamda foydalanilgan.

Ijmo uslubi ushbu kitobda «Islom huquqi manbalari» bobida yoritib berilgan.

7. Urf. Urf ikki xildir: urfi fosid - nassga zid boʻlgan urf- odat boʻlib, islom huquqida qoʻllanilmaydi. Urfi sahih - xalqning nassga zid boʻlmagan urf-odatlari boʻlib, Islom qonunchiligida, ayniqsa, Abu Hanifa mazhabida katta ahamiyatga egadir.

Islom huquqining asosiy manbalari, ayniqsa, Qurʼonda oldi- sotdi bitimiga doir bir-ikki oyatdan boshqa nass mavjud emas. Hadis kitoblarida ham bu sohaga tegishli hadislar soni 20 dan

oshmaydi. Shunday boʻlsa ham bugun fiqh kitoblarida bu soha boʻyicha minglab masalani koʻrish mumkin. Buning sababi shundaki, Paygʻambar zamonida uluslararo muomalot odat huquqi asosida tartibga solinar edi, Paygʻambar koʻpincha urfni qabul qilib, yangi hukm bermasdi,

Abu Hanifa Qurʼon yoki hadis, yoki sahobalardan rivoyat qilingan qavl va amal mavjud boʻlmagan holda, shuningdek qiyos urfga qarshi turganda, urf- odatga asoslanib hukm chiqaradi.

Urfga katta eʼtibor qaratish hanafiy mazhabi rivojlanib, keng koʻlamda tarqalishining muhim omillaridan biri edi.

Shunday qilib, Abu Hanifa raʼy va qiyosga asoslanib, urf- odatlardan keng koʻlamda foydalanish boʻyicha Iroq fiqhining imomi edi. ^e

Abu Hanifaning fiqhiy uslubiga tegishli boʻlgan boshqa baʼzi bir xususiyatlarni ham yoritib oʻtish joiz.

Abu Hanifa bir savdogar oilaga mansub boʻlib, ipak matolar savdosi bilan shugʻullanardi. oʻsha davrda savdo bozorida mavjud boʻlgan bozor munosabatlari, savdoning xususiyatlari talab va taklif, narxu navoning oʻsish va tushish qoidalarini, shuningdek, turli ijtimoiy tabaqalar psixologiyasini yaxshi bilardi!

adqiqotchilar fikricha, ibodatdan tashqari uning hayotida ikkita asosiy yoʻnalish mavjud edi: birinchisi, savdogarlik ruhiyasi, ikkinchisi, shaxs erkinligini himoya qilish xususiyati.

Birinchi yoʻnalish uning fiqhiy uslubida yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan, uning mazhabida shirkatlar tashkil etish, shartnomalar va bitimlarni tuzish

sohasida bir oliy malakali va smovdan o'tgan tojiming tajribalari o'z aksini topadi. Savdoga xos bo'lgan urf-odat, muomalot bo'yicha qabul qilingan ananalar o zini ko'rsatib turadi va ulami amaliy hayot bilan bog lash maqsadida shariat normalari bilan uyg'unlashtirish jarayoni seziladi⁷⁰.

Ushbu xususiyatni uning ilmiyuslubibo'yichaquyidaei ikki holatda ko'rish mumkin:

t I-Urfga asoslanish. Uningcha, tojirlar urfi tijorat va savdo boyicha savdogarlararo mavjud bo'lgan aloqalami tartibga

o A'arand; . A'ansur A_Imomi A'zam buyuk imomimiz. Bislilcek: Qirg'iziston Mllsulmonlar

huquqini himoya qilish qo'mitasi, 1998

o.lUilUj.

* solish uchun asosiy mezon

hisoblanadi. Shu sababli u, zarurat chog'ida qiyosni tark etib, urfga tayanadi va uni bir shar'iy manba sifatida qabul qiladi.

2. Istehsonga e'tibor berish. Uningcha huquqiy qiyosni tatbiq etish biror-bir qabohat (yomon natija)ga olib borsa yoki manfaat, yo tijorat urfiga mos kelmaydigan biror-bir muomalaning kelib chiqishiga sabab bo'lsa, qiyos tark etilib, shariat nassiga asoslangan manfaat yoki xalq taomili - urfga asoslangan istehsonga amal qilinadi.

Albatta, ta'kidlab o'tganimizdek, Abu Hanifa ra'y va qiyos, ayniqsa, uning iltkinchi turi istehson (qiyosi xafiy) bo'yicha o'ziga xos iqtidorga va tuganmas malakaga ega edi. Ushbu tamoyildan foydalanish uning mazhabiga keng koiamli imkoniyatlar yaratib berib, uni har qanday huquqiy muammoni yechish qobiliyatiga ega qilgan edi.

Olimlarning ta'kidlashicha, savdo bitimlari, ayniqsa, salam¹⁹, murobaha²⁰, tavliya²¹, vazia²² va shirkatlar kabi masalalar bo'yicha Abu Hanifa bildirgan fikrlar, barcha faqihlar orasida eng daqiq va eng mustahkam hamda puxta likrlardan iborat edi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Hanafiy mazhabining yuzaga kelish tarixini yoriting.*
2. *Abu Hanifa va lining shaxsiyati haqida ma'lumot bering.*
3. *Abu Hanifaning asarlari haqida ma'lumot bering.*
4. *Abu Hanifaning ko'zga ko'ringan shogirdlaridan kimlarni bilasiz?*
5. *Abu Hanifaning fiqhiy uslubi qanady bo'lgan?*
6. *Hiylai shar'iy nima?*

– 152 –

^x Salam - pishib yetilmagan narsani, masalan, paxta yoki bug'doyni naqd pulga sotib, uni pishib yetilgandan keyin sotib olgan kishiga topshirish.

⁴ Murobaha - tojir kishi sotib olgan molini uning ustiga bir miqdor, masalan, 5% yoki 10% foyda qo'yib boshqa kishiga sotish.

³ Tavliya - molni o'zi sotib olgan narxda foyda olmasdan boshqa kishiga sotish.

⁴ Vazia - molni sotib olgan narxdan kamroq bahoga sotish.

7. *Hanafiy mazhabining qanday xususiyatlari bor?*
8. *Nima uchun hanafiy mazhabi eng keng tarqalgan mazhab bo'lgan?*

⁵⁸ Bust - Afg'onistonning Hilmand viloyatiga tegishli mashhur tarixiy shahar.

— 147 —